



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

30-noyabr

payshanba

№ 48 (4638)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



«JISMONIY VA JANGOVAR TAYYORGARLIK OYLI»

XIZMAT SAMARADORLIGI GAROVI



Navoiy viloyati IIB

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar
va kadrlar bilan ta'minlash
xizmati xodimlari tomonidan

«Jismoniy va jangovar tayyorgarlik
oyligi» uyushqoqlik bilan tashkil etildi.

Xususan, sport musobaqalari, jango-
var tayyorgarlik mashg'ulotlari, mahorat
darslari, psixologik treninglar o'tkazildi.
Ayniqsa, suzish, voleybol hamda faxriylar
ishtirokidagi minifutbol musobaqalari xo-
dimlarni jismonan chiniqtirsa, o'q otish
mashqlari hamda maxsus texnikalar
bo'yicha o'quv mashg'ulotlari
ularning kasbiy salohiyatini
oshiradi.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

«NAMUNALI HUDUD» TAJRIBASI ASOSIDA

Surxondaryo viloyatida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni jalb etgan holda, viloyat IIB, prokuratura, sud, milliy gvardiya va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda kompleks tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, Termiz shahri, Denov va Jarqo'rg'on tumanlarida sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinib, «Namunali hudud» tajribasi qo'llanilmoqda.



Yangi tajriba asosida Jarqo'rg'on tumanidagi «qizil» toifaga mansub hududlarni «yashil» toifaga o'tkazish uchun barcha kuch va vositalar jalb qilinib, ushbu mahallalardagi asosiy ko'chalar, aholi gavjum joylar va muhim obyektlarga videokuzatuv kameralari o'rnatildi hamda mahalla huquq-tartibot maskanlariga integratsiya qilindi. Bu «qizil» toifadagi hududlarda vaziyatni to'laqonli nazorat qilish imkonini bermoqda.

Aytish kerakki, jinoyatlar mahallalar kesimida tahlil qilinib, kuch-vositalar qayta taqsimlandi va «jinoyat o'choqlari»ni bartaraf etishga yo'naltirildi. Bu-

ning natijasida jinoyat sodir etilmagan xavfsiz mahallalar soni ko'paymoqda. Masalan, 2021-yilda 721 ta mahalladan 229 tasida jinoyat sodir etilmagan bo'lsa, joriy yilning 10 oyida mavjud 724 ta mahalladan 284 tasida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Shunga qaramay, har kuni hududdagi kriminogen vaziyatni tahlil qilib, tezkorlik bilan munosabat bildirish birlamchi vazifa sanaladi. Afsuski, kriminogen vaziyat tahlili keyingi vaqtda yengil tan jarohati yetkazish, mayda bezorilik kabi huquqbuzarliklar ko'p uchrayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa odamlar o'rtasida nizoli holatlar mavjudligidan

kelib chiqadi. Agar mazkur holatlar o'z vaqtida ijobiy hal qilinmasa, ertaga ular og'ir oqibatlariga olib kelishi ehtimoli yuqori, albatta.

Jarqo'rg'on tumanida viloyat hududida «mahalla yettiligi» faoliyatini namunali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan seminarda ayni shu jihatlar chuqur tahlil qilindi. Unda ishtirok etgan viloyat IIB mas'ullari hamda 724 nafar profilaktika inspektori tumandagi «qizil» toifaga kiritilgan «Surxon sohili», «Do'stlik» va «Yangi-obod» mahallalarida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Mahallalarni

kameralashtirish orqali integratsiya qilingan xizmat xonalari ko'zdan kechirildi. Shu bilan birga, «mahalla yettiligi» faoliyatida profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari, huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borish, jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Bu bo'radagi ishlarni jonlantirish maqsadida samarali faoliyat yuritayotgan xodimlarni rag'batlantirish, sustkashlikka yo'l qo'yganlarga nisbatan chora ko'rish tizimini sifatli tashkil etish chora-tadbirlari belgilab olindi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

FIDOYILIK MUVAFFAQIYATGA
YETAKLAYDI

Bu yilgi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni Chirchiq shahar IIB JQB katta tezkor vakili, mayor Bekzod Niyozov uchun qo'shaloq bayramga aylandi: Prezidentimiz farmoniga binoan, «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.



Tizimdagi ilk faoliyatini 2013-yilda Chirchiq shahar IIB profilaktika inspektori lavozimida boshlagan B. Niyozov o'ziga birlashtirilgan mahalla osoyishtaligi yo'lida munosib xizmat qilib, qonunbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashdi.

Keyinchalik, xizmatni yoshligidan o'zi havas qilgan jinoyat qidiruv yo'nalishida davom ettirgan lavhamiz qahramoni ustoz podpolkovnik Bekzod Mirahmedov ko'magida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali natijalarga erishdi.

– Xizmatda nimaga erisha-yotgan bo'lsam, ustozlarimdan olgan saboq, kasbiy bilim va ko'nikmalarim qo'l kelmoqda, – deydi B. Niyozov. – Kelgusida ham jinoyatchilikni jilovlash va unga qarshi murosasiz kurashishda bor kuch va g'ayratimni ayamayman.

Shuningdek, u ko'plab shogirdlar ham tarbiyalab soha rivoji yo'lida beminnat xizmatini ayamadan kelyapti. Chirchiq shahar IIB JQB katta tezkor vakili, kapitan Muhammadyusuf Ortiqov hamda tezkor vakillar, leytenantlar Fazliddin Jamolov va Mirjabbor Mirtaxtayev uni ustoz deb hurmat-e'tibor ko'rsatishadi.

– Avvaliga bu kasbning qiyinchilik va mashaqqatlarini ko'rib, to'g'risi, xizmatni davom ettirishga biroz ikkilangan edim, – deydi leytenant F. Jamolov. – Ammo, ustozim mayor B. Niyozovning menga bergan bilim

va ko'nikmalari hamda hayotiy nasihatlari asosida kasbimga bo'lgan mehrim yanada oshib, endilikda ushbu sohani to'g'ri tanlaganimga yana bir bor amin bo'lmoqdaman.

Doimo oilasidan mehrini ayamay kelayotgan bu inson turmush o'rtog'i Feruzaxon bilan 3 nafar o'g'ilni bekamu ko'st tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Bo'sh paytlarida farzandlari bilan dildan suhbat qilib, ularning qaysi kitoblarni mutolaa qilayotganliklari bilan qiziqadi. Shuningdek, dilbandlarining ma'naviy salohiyatini yanada boyitish maqsadida muqaddas qadamjolariga sayohat uyushtirib, buyuk ajdodlarimizning dunyo tamaddunida tutgan o'rni haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdan charchamaydi.

Shu boisdan, otasining xizmatdan kelishini intiqlik bilan kutib o'tiradigan «uch og'ayni botirlar»ning barchasi kelajakda o'zlari ham el-yurtimizga nafi tegadigan, yurtimiz tinchlik-oso-yishtaligi yo'lida hormay-tolmay xizmat qiladigan ichki ishlar organlari xodimi bo'lmoqchi.

Biz ham ularning bu kabi ezgu orzu-niyatlari ro'yobga chiqishining tilakdoshimiz. Toki, jannatmonand yurtimizda mayor Bekzod Niyozovdek alpomat va dovyurak yigitlar bor ekan hech qanday xavf xalqimizga yaqin kelolmaydi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

Mahalla guzariga chiqqan Yodgor boboni uch-to'rt tengquri iliq qarshi oldi.

– Bo'riqul o'g'lingiz «Shuhrat» medali olibdi, deb eshitdik. Tabriklaymiz, mehnat qilgan – elda aziz, degan naql bekor aytilmagan.

– Ha, yigirma yildan beri xalqqa, yurtga vijdonan xizmat qilib kelayotgani e'tibordan chetda qolmadi, – dedi o'zgacha g'urur bilan Yodgor bobo.

– Bundan boshim osmonga yetdi...



Yodgor hojining o'g'li – Koson tumani IIB HPB 42/4-sonli tayanch punkti profilaktika katta inspektori, mayor Bo'riqul Mo'minov xizmat faoliyatini 2001-yili Kasbi tumani IIB HPB voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi inspektori vazifasidan boshladi. Hozirda iste'fodagi mayorlar Odil Siddiqov, Mahmadali Shukurovdan so'haviy xizmatning o'ziga ma'lum bo'lmagan jihatlarini o'rgandi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarining oldini olishda astoydil xizmat qildi. Bo'riquldagi o'z ishiga bo'lgan qiziqish, bilim va tajriba keyingi yillarda Kasbi tumani IIB HOOB inspektori, boshlig'i, profilaktika katta inspektori lavozimlarida samarali xizmat qilishiga zamin hozirladi.

Kasb taqozosiga ko'ra, 2017-yili Koson tumani IIBga ishga o'tgan Bo'riqul Mo'minov tumandagi kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda faoliyat ko'rsatdi. To'plagan tajriba va malakasini ishga solib, kriminogen vaziyatni jilovlashga munosib hissa qo'shdi.

Qahramonimiz hozirgi kunda Koson tumanining aholi eng gavjum yashaydigan hududlaridan biri «Yangiobod» mahallasida profilaktika katta inspektori sifatida xizmat qilmoqda. Mahalladagi 1037 ta xonadonda 6300 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Shu bilan birga, hududda to'rtta yirik bozor faoliyat ko'rsatayotgani uning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Buni yaxshi anglagan profilaktika katta inspektori

mahalla raisi Akram Otayev, hokim yordamchisi Vasliddin Ismoilov, yoshlar yetakchisi Odil Choriyev, xotin-qizlar faoli Nargiza Norqulova bilan hamjihatlikda ish olib boryapti. Natijada aholi osoyishtaligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, qonunbuzarliklarga barham berish borasida ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan hududda jinoyatchilik yetmish foizga kamaygani buning tasdig'i.

El-yurt tinchligi, fuqarolar xotirjamligi yo'lida qilingan xizmat, albatta, rag'bat topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-oktabrdagi farmoniga ko'ra, mayor Bo'riqul Mo'minov «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

– Kamtarona xizmatlarimni yuksak baholagani uchun muhtaram Yurtboshimizdan, vazirlik rahbariyatidan g'oyat minnatdorman. Bundan keyin ham bor bilim, kuch va mahoratimni ishga solib, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilaman, – deydi u.

Mayor Bo'riqul Mo'minovni chin ma'noda oilada osoyishtalik posbonlari sardori, deyish mumkin. Uning ukasi Jo'rabek Mo'minov viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida xizmat qilmoqda, unvoni kapitan. Katta o'g'li Muhammadrasul Yodgorov esa Qarshi aviatsiya bilim yurti kursanti. Turmush o'rtog'i Oynisa Rasulova bilan yana uch nafar farzand tarbiyasida sobitqadam umrguzaronlik qilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



8 декабря — День Конституции Республики Узбекистан

ПРАВОВОЙ ФУНДАМЕНТ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

«Можно с полной уверенностью сказать, что Конституция Республики Узбекистан является ярким воплощением политико-правового мышления нашего народа. Основной закон служит гарантом нашей независимой, свободной, мирной и благополучной жизни, прочным фундаментом построения правового демократического государства с сильным гражданским обществом и рыночной экономикой».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.



Бегубор ОДИЛБЕКОВА,
учащаяся Хорезмского
академического лицея
МВД Узбекистана,
обладательница нагрудного
знака «За успехи в учебе»:

— Конституция страны воплощает национальные и общечеловеческие ценности, закрепляет наши права и свободы. Роль Конституции в жизни граждан, общества и государства невозможно переоценить.

В Основном законе также прописаны обязанности граждан. Мы должны соблюдать Конституцию и законы, уважать права, честь и достоинство других людей, оберегать историческое, духовное, культурное наследие народа.

После окончания лицея планирую поступать в Академию МВД, связать свою жизнь с органами внутренних дел. Для этого прилагаю максимум усилий. Ежедневные занятия в лицее сочетаю с основательной подготовкой к поступлению в вуз, углубленным освоением профильных дисциплин, тонкостей отраслей права. В будущем хочу стать следователем, укреплять в обществе законность, обеспечивать его верховенство.

Сардоржон НИЗОМОВ,
учащийся Нукусского военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби» МВД Узбекистана:

— В обновленной Конституции закреплено право на образование. Это право на реализацию своих способностей и самосовершенствование. Работая над собой, я достиг определенных успехов. В интеллектуальной игре «Заковат» в составе команды «Темурбеклар мактаби» стал победителем этапа, состоявшегося в Каракалпакстане, завоевал путевку на финальные состязания.

В минувшем году принял участие в олимпиаде по родному языку и литературе и занял второе место по Каракалпакстану. Также являюсь участником республиканского смотра-конкурса, посвященного Конституции Узбекистана. Буду стремиться к новым достижениям. Для этого в стране созданы все условия.



Акмал САЛАЕВ, курсант Академии МВД Узбекистана,
участник научного кружка «Молодой правовец»:

— Конституция — прочный правовой фундамент строительства Нового Узбекистана, устойчивого развития, дальнейшего повышения благосостояния народа. На занятиях кружка «Молодой правовец», объединяющего три десятка курсантов 1, 2 и 3 курсов, постигаем суть и содержание Основного закона страны. Под руководством наставников — кандидата юридических наук Азиза Имамова, преподавателей Хусана Чинибаева, майора Бекзода Исаева, старшего лейтенанта Махмуда Чориева готовим рефераты, доклады, отражающие нормы Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, организовываем духовно-просветительские мероприятия. Акцентируем внимание на том, что в основу Конституции положен принцип «человек-общество-государство», где приоритетное место отводится личности. Каждая ее норма служит утверждению идей демократии, свободы и равенства, социальной справедливости.

В Основном законе закреплены гарантии защиты прав и интересов молодежи. Это возлагает на каждого из нас особую ответственность за завтрашний день Родины, ее будущее.



На снимке: участники научного кружка под руководством преподавателя кафедры государственно-правовых дисциплин и обеспечения прав человека майора Бекзода Исаева готовят мероприятие по конституционному праву.



PROFILAKTIKA XIZMATI

AGAR INSPEKTOR BO'LSANG ...



Shahrixon tumanida tug'ilgan Ravshanbek Umarov Andijon davlat universitetini tamomlab, bir necha yil kasb-hunar kollejida ishladi. Keyinchalik ichki ishlar organlarida xizmat qilishga qat'iy qaror qildi.

2010-yilda uning orzusi amalga oshib, Andijon shahar 1-sonli IIB profilaktika inspektori lavozimiga qabul qilindi. Profilaktika katta inspektorlari, podpolkovnik Shukrullo Mamasidiqov va mayor Ulug'bek Nazarovlar unga ustozlik qildi.

Andijon shahrining turli hududlarida xizmat qilgan R. Umarovning fidokorligi rahbariyat e'tiboriga tushdi. 2016-yilda lavhamiz qahramoni katta profilaktika inspektori etib tayinlandi, yaqinda esa unga podpolkovnik unvoni berildi.

Endilikda profilaktika katta inspektori, podpolkovnik R. Umarov kapitanlar – Abror Hamidov, Hamidullo Mirabdullayev, katta leytenantlar Asilbek Tavakkalov va Sobirjon Iminjonov kabi o'nlab shogirdlariga ustozlik qilmoqda.

– Hududiy profilaktika inspektori faoliyatida birlashtirilgan hududda yashovchi har bir oiladagi ahvolni bilish, muqaddam sudlangan hamda huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil fuqarolar bilan individual ishlash, uyushmagan yoshlar va doimiy ish qidirayotgan ayollarni e'tibordan

chetda qoldirmaslik juda muhim, – deydi Andijonning eski shahar qismida joylashgan «Bobosadim» mahallasi hududida xizmat olib boruvchi podpolkovnik R. Umarov. – Bir o'zim bu muammolarni hal eta olmayman. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mamirjon Mamadaliyev, hokim yordamchisi Jahongir Mamirjanov, yoshlar yetakchisi Yahyobek Qosimov, xotin-qizlar masalalari bo'yicha faol Azizaxon Mansurovalar bilan birgalikda xonadonma-xonadon yurib, ish bilan ta'minlash, kichik biznesni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar olish bo'yicha tegishli choralarni ko'ryapmiz. Uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Maqsadli profilaktik tadbirlar natijasida joriy yil boshidan buyon birlashtirilgan hududda birorta ham jinoyat qayd etilmagan.

Boris KLEYMAN.

Andijon viloyati.

Suratda: podpolkovnik Ravshanbek Umarov shogirdlari – kapitanlar Umidjon Mamatxonov, Abror Hamidov va katta leytenant Asliddin Tavakkalovlar bilan.

QUROL MAS'ULIYATI

YOXUD NOXUSH HODISALARNING OLDI OLINMOQDA

Qashqadaryo viloyati IIB JXX JTSB nazorat-litsenziyalash guruhi xodimlari o'qotar ov qurollari egalari tomonidan qurollar, ularning o'q-dorilarini saqlash va foydalanish qoidalariga rioya etilishini muntazam tekshirib, ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Joriy yilning o'tgan davrida shaxsiy o'qotar ov qurollariga ega bo'lgan ovchilik jamiyati a'zolari bilan qator profilaktik ishlar amalga oshirildi. Jumladan, «Qurol» va «Xavfsiz hudud» maxsus profilaktik tadbirlari davomida ichki ishlar organlari tomonidan ro'yxatga olingan shaxsiy qurol egalari o'qotar qurollari tekshirildi. Bu jarayonda qurol saqlash qoidasini buzgani uchun 761 nafar shaxsiy ov quroli egasi ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Guruh xodimlari tomonidan joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi natijasida fuqarolaridan 153 ta o'qotar qurol olindi. Shundan 121 ta qurolni fuqarolar o'z xohishi bilan ichki ishlar bo'lim-

lariga topshirishdi. Qolaversa, noqonuniy saqlab kelingan 3 ta ov quroli egalari nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi, 8 ta pnevmatik qurol sohiblariga ma'muriy chora ko'rildi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi «Qurol to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonuni yuzasidan joylarda targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ishtirokchilarga qonunchilikdagi yangiliklar tushuntirilmoqda.

Ahror QURBONOV,
mayor.


Qashqadaryo viloyati.



Suratda: Qashqadaryo viloyati IIB JXX JTSB nazorat-litsenziyalash guruhi katta inspektori, mayor Suxrob Rahmonov ovchilar bilan muloqotda.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

UNING ISTIQBOLI BOR



Kapitan Isomiddin Bektemirov Jizzax shahar Ichki ishlar boshqarmasining bilimli, umidli yosh xodimlaridan.

U ichki ishlar organlaridagi xizmatini 2016-yilda Yangiobod tumani IIB HPB tayanch punktlari profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Tergov tizimida esa 2020-yildan buyon faoliyat yuritmoqda. Xususan, Zomin va Yangiobod tumanlarida surishtiruvchi, tergovchi, katta tergovchi lavozimlarida ishladi. Ayni paytda Jizzax shahar IIB huzuridagi Tergov guruhi tahlil va nazorat guruhi katta tergovchisidir.

– Kapitan Isomiddin Bektemirov bir yil davomida o'rtacha 40 ta jinoyat ishini ko'rib chiqadi, – deydi viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi kadrlar guruhi katta inspektori, mayor Shahboz Mama-

soliyev. – Hamkasbimizning salohiyatidan kelib chiqqan holda unga eng murakkab va chigal jinoyat ishlari topshiriladi. Uning sohadagi muvaffaqiyatini tinimsiz o'qib o'rganayotgani, har bir gumonlanuvchiga mos yondashuvni topa bilishi bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Shuningdek, Isomiddin Bektemirov 2021–2022-yillarda soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi tergovchi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ikkinchi, bu yil esa birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Darhaqiqat, 26 yoshli lavhamiz qahramonini hamkasblari istiqbolli yosh xodimlar sirasiga qo'shadilar, yana ko'plab zafarlar qozonishiga ishonadilar.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



★ Признание

УСПЕХ МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА

В Узбекистане проводится политика, направленная на воспитание гармонично развитого молодого поколения – физически здорового и духовно зрелого, обладающего разносторонними знаниями, умеющего самостоятельно принимать решения, смело смотрящего в будущее.

В зону ответственности инспектора-психолога группы по работе с несовершеннолетними и молодежью ОПП СОБ УКД ОВД города Карши лейтенанта Достонбека Амиркулова входят махалли Беглар, Отчопар, Бунёдкор, имени Алишера Навои областного центра.

В целях профилактики правонарушений, предупреждения преступности среди несовершеннолетних он проводит встречи и беседы, вызывая подростков и юношей на открытый диалог. Совместно с заместителями директоров школ по духовно-просветительской работе и психологами-практиками организует в учебных заведениях мероприятия соответствующей направленности, обращая особое внимание на учеников, пропускающих занятия. При необходимости в адресном порядке проводит работу с родителями. В ходе просветительских ме-



роприятий в доступной форме объясняет последствия негативного влияния массовой культуры, бездумного увлечения сомнительными интернет-ресурсами.

Проводимые в махаллях конкурсы и акции «Моло-

дежь против наркотиков», «Знаете ли вы закон?», «Книга – источник знаний», «Профессия – ключ к успеху» дают хороший результат в работе. Предметные кружки и спортивные секции помогают с пользой орга-

низовать досуг школьников. Совместно с активистами махалли занимается вопросами несовершеннолетних, оставшихся без попечения родителей, с привлечением соответствующих структур решаются вопросы опеку-

ства. Также проводятся рейды в ночные клубы, центры компьютерных игр, бары.

– Одним из любимых мест досуга молодежи является спортивная секция по таэквандо WTF, действующая при школе № 29 города Карши, – говорит Д. Амиркулов. – Данным видом спорта здесь занимаются более ста юношей и девушек. Под началом опытных тренеров они постигают тонкости восточного единоборства. Здесь уже есть свои чемпионы. К примеру, пятиклассник Мирзохид Камариддинов в июне текущего года занял первые места на проходивших в Джизаке чемпионате и кубке Узбекистана.

Плодотворная работа по профилактике правонарушений среди несовершеннолетних, проводимая лейтенантом, получила признание. В рейтинге инспекторов-психологов Достонбек Амиркулов, набрав высокий балл, занял второе место в республике.

Содик РАХИМОВ,
соб. корр.

Кашкадарьинская область.

■ Самаркандская область

ХАРАКТЕР ЗАКАЛИЛА СЛУЖБА

Современная женщина – это любящая мать, заботливая жена, хорошая хозяйка, незаменимый специалист в своем деле. Капитан Шахноза Бобошарипова одна из таких.



В органах внутренних дел Шахноза с 1997 года. С 2000 года является инспектором по вопросам женщин, сначала ОВД Самаркандского района, а ныне ОВД № 5 УКД ОВД города Самарканда. На выбор профессии повлиял отец, являющийся для

нее примером стойкости и добродетельности.

– Когда однажды спросила, кем бы папа хотел меня видеть, он ответил, что у меня твердый характер и непременно должна служить Родине, – говорит наша героиня. – До сих пор многие

спрашивают, как работает в мужском коллективе. Отвечаю, что дискомфорта не испытываю. Напротив, мужчины проявляют уважение, поддерживают на службе, поэтому чувствую свой особый женский статус.

Ежедневные будни капитана – защита прав и интересов женщин. Это свыше 24 тысяч соотечественниц, проживающих в 24 махаллях. Несмотря на предпринимаемые усилия с начала года женщинами было совершено 14 преступлений, хотя этот показатель в предыдущем году составлял 24 факта. Но специфика осталась прежней. В основном это мошенничество, подделка документов, чуть реже происходят кражи.

С начала года на профилактический учет взято 13 женщин. Сейчас общее количество состоящих на профучете составляет 23 женщины, но список постепенно уменьшается, когда человек становится на путь исправления. С каждой подопечной ведется работа в индивидуальном порядке, оказывается необходимая поддержка. Так четыре женщины были трудоустроены, шестеро получили материальную помощь,

двоим восстановили документы, удостоверяющие личность.

Особый акцент делается на семьях. С начала года изучено состояние 150 семей, разрешены проблемы 156 женщин. Изучение показало, что пять женщин находились на грани развода, с ними проведены соответствующие профилактические беседы. Также 46 нуждающимся женщинам оказана практическая помощь, 29 выданы охранные ордера. В результате примирено 11 семей, разрешены споры 11 человек. Увы, есть семьи, в которых конфликт уладить не удалось. В результате трое мужчин привлечены к административной ответственности.

Шахноза Бобошарипова мать двоих детей. Старший сын, Шахбоз, пошел по ее стопам. Он учится в академическом лицее МВД. Шахноза успевает добросовестно нести службу, обеспечивать уют в доме, воспитывать детей.

Все женщины в погонах, несомненно, достойны восхищения, поскольку сочетают в себе как женские качества, так и необходимые для службы твердость характера.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

SARDORNING SADOQATI

Har kuni ishga, o'qishga shoshilamiz, qolaversa, yoru do'stlarimiz bilan diydorlashamiz. Yaxshi niyatlar bilan to'yu tomoshalar qilamiz, yurt kezamiz. Biroq bularning barchasi yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik tufayli ekanligiga ko'pincha ahamiyat bermaymiz. Hayot davom etyapti qabilida shodu xurramlik ila kunu tunimiz bir maromda kechayotganidan barchamiz mamnunmiz. Ana shu tinchligimiz va osoyishtaligimizni ta'minlashda Vatan ishq bilan yongan olovqalb yigitlarimizning o'zni beqiyos.



Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishni istovchi yigitlar soni tobora ortmoqda. Ular Vatanini va xalqini himoya qilishga kamarbasta bo'lib kelishmoqda.

Vobkentning Xayrabodcha qishlog'ida voyaga yetgan Sardor Ergashov ham teng-qurlari qatori harbiy bo'lish uchun jismonan chiniqdi, bilimlarini oshirdi. Harbiylar haqidagi kitoblarni doimiy mutolaa qilib bordi. O'rta ta'limni olgach, muddatli harbiy xizmatni IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismda o'tadi. 2010-yildan boshlab Qurolli Kuchlar safida shartnoma asosida xizmat qilib kelyapti. Dastlab, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7551-harbiy qismda 1-o'qchi vzvod boshqaruv guruhi ruxsatnomalar byuro-si navbatchisi vazifasida xizmatni boshladi. Qisqa fursatda jangovar qobiliyatini oshirib, rahbariyatning nazariga tushdi. Shuning uchun bir yildan so'ng jangovar guruh 3-seksiyasining katta mutaxassis-o'qchisi lavozimiga o'tkazildi. Salkam o'n yil shu lavozimda faoliyat ko'rsatdi. Keyin 7536-har-

biy qismda ham maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi 3-guruh katta mutaxassis-o'qchisi vazifasida va ayni paytda 1-batalyon komandirining moddiy ta'minot bo'yicha yordamchisi lavozimida xizmatini davom ettirmoqda.

Sardorning aytishicha, ustozlari, polkovniklar Umet Toirov, Yodgor Iskandarov va mayor Yo'ldosh To'rayevlardan soha sirlarini o'rgangan, ularning yordamida tajriba o'rttirgan. Qiyin damlarda tajribali safdoshlari ham undan ko'maklarini ayashmadi.

Kichik serjant Sardor Ergashov jamoamizning tashabbuskor va o'ta intizomli harbiy xizmatchilaridan biri, – deydi 7536-harbiy qism 1-batalon komandiri, podpolkovnik Dmitriy Intankin. – U xizmatda ham, jamoat ishlarida ham hamkasblariga doimo o'rnak. Zimmasidagi vazifalarni bekamu ko'st uddalash bilan bir qatorda, yoshlarni Vatanga muhabbat, burchga sadoqat ruhida tarbiyalashga ham hissa qo'shyapti.



Darvoqe, lavhamiz qahramonining ukasi, kichik serjant Shohrux Ergashov ham 7536-harbiy qism 2-batalyon nazoratchisi lavozimida xizmat qilib kelyapti. Qolaversa, akasi kapitan Suhrob Ergashov Vobkent tumani IIBda profilaktika katta inspektori bo'lib xizmat qiladi.

Yaqinda u IIV harbiy tuzilmalari o'rtasida o'tkazilgan alvon beret kiyib yurish huquqini beruvchi sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, alvon beret sohibi bo'lgan.

Kichik serjant Sardor Ergashov kabi intiluvchan, o'z kasbining fidoyilari qancha ko'p bo'lsa, armiyamiz shunchalik qudratli va mustahkam bo'lib boraveradi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

MIGRATSIYA

E'TIBORSIZLIK JAVOBGARLIKKA OLIB KELADI

Tuproqqal'a tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi xodimlari fuqarolarni ID-karta, xorijga chiqish pasporti bilan ta'minlashda samarali xizmat qilishmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida 4174 nafar fuqaroga ID-karta, 2828 nafariga xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirib berildi.

16 yoshga to'lgan yoshlarga ID-kartalarni ta'lim muassasalari-da tantanali ravishda topshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Qolaversa, imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan hamda salomatligi tufayli yurolmayotgan fuqarolarning uylariga borib, pasport ma'lumotlarini to'plash jarayonlari davom etyapti. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarga esa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

– Shu yilning o'tgan davrida 624 nafar fuqaro «Pasport-viza» qoidalariga amal qilmagani aniqlandi, – deydi tuman IIB M va FRG katta mutaxassisi, katta leytenant Erkinboy Sapayev. – Shundan 186 nafar fuqaro paspor-

tini yo'qotgani, 229 nafari yaroqsiz holatga keltirgani, 209 nafari esa muddati o'tgan hujjat bilan yurgani ma'lum bo'ldi. Belgilangan qonun talablariga rioya qilmagan ushbu

shaxslarga nisbatan tegishli tartibda choralar ko'rildi.

E'tiborsizlik, qonun talablariga rioya etmaslik kishini qiyinchiliklarga, noqulayliklarga ro'baro' qiladi. Masalan, joriy yilning o'tgan davrida xorijiy mamlakatlarga turli maqsadlarda ketgan fuqarolardan 74 nafari yurtimizga Vatanga qaytish guvohnomasi bilan kirib kelishgan. Ulardan 34 nafari fuqarolik pasportini yo'qotgan, 3 nafari yaroqsiz holatga keltirgan, 14 nafari belgilangan muddatiga e'tibor bermagan. Ko'rinib turibdiki, har birimiz fuqarolikni tasdiqlovchi muhim hujjatga e'tiborli bo'lishimiz, qonun talablariga qat'iy rioya qilishimiz lozim. Aks holda, e'tiborsizligimiz javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Suratda: Tuproqqal'a tumani IIB M va FRG katta mutaxassisi, katta leytenant Erkinboy Sapayev xizmat paytida.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

«DOLZARB 40 KUNLIK»

KENG KO'LAMLI TADBIRLAR

Ichki ishlar organlari tomonidan joriy yilning 20-noyabridan 30-dekabriga qadar korxona va tashkilotlar, jamoat uyushmalari hamda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda respublika miqyosida «Dolzarb 40 kunlik» keng ko'lamli tadbiri o'tkazilmoqda.

Navoiy viloyatida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash maqsadida tungi ko'ngilochar kafe-barlar, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, savdo do'konlari faoliyati o'rganildi. Shuningdek, kompyuter o'yinxonalari profilaktik tadbirlar amalga oshirilyapti. Tungi vaqtda maqsadsiz va nazoratsiz yurgan o'smirlar hamda shubhali shaxslar, mast holatda janjal qilayotganlardan tushuntirish xatlari olinmoqda.

Ayniqsa, «qizil» toifaga kiruvchi mahallalarda nazorat kuchaytirilib, haydovchilarning hujjatlari bilan bir qatorda transport vositalari ham ko'zdan kechirilmoqda. Birgina 22-noyabr kuni 51 nafar



fuqaro profilaktik hisobga olindi. Huquqbuzarlarga nisbatan 507 ta ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. «Dolzarb 40 kunlik» doirasida o'tkazilayotgan «Tig'» tadbirlarida qoidabuzarlardan jami 620 ta ashyoviy dalil olindi.

Mazkur tadbir doirasida yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun 398 nafar haydovchi ro'yxatga olindi. Xususan, 276 nafar haydovchiga mast holda transport vositasini boshqarganligi uchun ma'muriy bayonnoma tuzildi. 3103 ta avtomashina jarima maydonchasiga joylashtirilgan.

Shuningdek, xalqimiz salomatligini ta'minlash, aholi uchun sifatli mahsulotlar sotuvini yo'lga qo'yish maqsadida viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi vakillari bilan hamkorlikda dehqon bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi tadbirkorlar faoliyatini o'rganishdi. Savdo xodimlariga faqat sifat tekshiruvidan o'tgan mahsulotlarni sotish lozimligi tushuntirildi.

O'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



NAMANGAN VILOYATI

Namangan viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi hamda uning joylardagi bo'linmalari xodimlari «Tozalash-Anti-terror», «Qoradori», «Tig'» kabi profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarida boshqa sohaviy xizmat vakillari singari faol ishtirok etishmoqda.

– Yil boshidan buyon xodimlarimiz tomonidan 2508 ta hodisa joyi ko'zdan kechirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qiyoslanganda ushbu ko'rsatkich 34 foizga oshdi, – deydi markaz boshlig'i, podpolkovnik Anvarali Dadajonov. – Bundan tashqari, fotorobot, fotosurat, videoyozuv va biografik ma'lumotlar bo'yicha 2086 nafar shaxs aniqlandi, qo'l-barmoq izlari yordamida 58 ta jinoyat izi sovimasdan ochildi.

Ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovning respublika bosqichida viloyat vakillari faxrli ikkinchi o'rinni egallagan edi.

O'z muxbirimiz.



ПРОФИЛАКТИКА ХИЗМАТИ

КАТТА МАСЪУЛИЯТ

Бўлимнинг вояга етмаганлар билан ишлаш гуруҳи томонидан жорий ўқув йилининг шу даврига қадар ҳамкор ташкилотлар билан мактаблар ва маҳаллаларда ўқувчи-ёшлар иштирокида 20 дан ортиқ тадбирлар ўтказилди. Шунингдек, профилактик ҳисобда турган вояга етмаганларнинг 50 нафари спорт ва фан тўғаракларига жалб қилинди.

– Ёшлар иштирокида содир этилган қонунбузарликларнинг моҳияти ўрганилиб, таҳлил қилиб бориляпти, – дейди Чиноз тумани ИИБ ХПБ вояга етмаганлар билан ишлаш гуруҳи инспектор-психологи, майор Нурлан Токманбетов. – Ўқув йили бошидан ҳозиргача

худуддаги 46 та умумтаълим ва 2 та касб-ҳунар мактабида 84 марта «Давомат», «Тиғ» тадбирлари ўтказилди. Аниқланган ноқонуний ҳолатлар бўйича вояга етмаганларнинг ота-оналари маъмурий жавобгарликка тортилди. Бундан ташқари, ҳамкор ташкилотлар



иштирокида ўтказилган тадбирларда болалар тунги вақтларда компьютер ўйинхоналари ва кўнгилочар манзилларда назоратсиз бўлишига имконият яратиб берган муассасалар мутасаддиларига нисбатан чоралар кўрилди.

Худудда аёлларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга нисбатан оилавий-маиший зўравонлик қилинишининг олдини олиш, хотин-қизлар томонидан жиноят содир этилишига йўл қўймаслик юзасидан амалга оширилган манзилли ишлар натижасида жорий йилнинг ўтган даврида 78 та ажрим ёқасидаги оила сақлаб қолинди. Тазйиққа учраган 500 нафар аёлга ҳимоя ордери берилди.

Жазони ижро этиш муассасасидан озод этилган, пробация бўлими рўйхатида турган ва илгари судланган шахсларни ишга жойлаштириш бўйича меҳнат ярмаркалари ташкил этилиб, 12 нафар хотин-қиз иш билан таъминланди.

Шу билан бирга, ҳудуд профилактика инспекторларининг маҳалла раиси, хотин-қизлар фаоли, ҳоким ёрдамчиси ҳамда ёшлар етакчиси билан ҳамкорликда олиб борган амалий ишлари натижасида тумандаги 14 та маҳаллада жиноятчилик сони тубдан камайиб, айримларида умуман содир этилмади.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.



СОҲА ФИДОЙИЛАРИ

ОТА ИЗИДАН

Отаси вафот этганида Жамшид эндиgina 4 ёшга тўлганди. Унинг отаси биз билган ўша «Уч қахрамон» ЙПХ масканида жиноятчиларга қарши курашда мардларча ҳалок бўлган уч нафар ички ишлар органлари ходимларидан бири, милиция старшинаси Олимжон Асқаров эди.



... 1988 йилнинг июнь ойи. Эрта тонгда пойтахт чеккасидаги «Чимкент» постида навбатчилик қилаётган ички ишлар органлари ходимларига қуролли жиноятчилар ҳужум қилади. Манфур жиноятчилар билан олишувда ҳалок бўлганлар орасида милиция старшинаси, лавҳамиз қахрамони Жамшиднинг падари бузруквори Олимжон Асқаров ҳам бор эди.

Мана шу воқеага ҳам 35 йил тўлибди. О.Асқаровнинг ишини дастлаб катта ўғли Қахрамон Асқаров давом эттирди. Кейин эса Жамшид ота изидан кетди. Ҳозирда у Сергели тумани ИИОФМБ 1-сонли ИИБ Навбатчилик қисми ҳайдовчиси лавозимида фаолият юритмоқда.

Жамшид, гарчи отасини эслай олмаса-да, онаси Улпатоӣ ая, қариндош-



уруғ ва таниш-билишларнинг ҳикояларидан падари бузрукворининг қандай инсон бўлганлиги ҳақида тасаввурга эга бўлган ва у кишининг касбига қизиқиши шаклланган. Қолаверса, акаси Қахрамоннинг виқор билан ички ишлар органлари либосини кийиб юришини кўриб, бу соҳага бўлган ҳаваси янада ортган.

...Жамшид у пайтлар ёш йигит эди. Кунлардан бир кун у онаси билан отасининг хотирасига бағишланган тадбирга боради. Йиғилиш тугаганидан сўнг раҳбарлардан бири уни ёнига чақириб: «Сен отангининг ишини давом эттиришинг керак» дейди.

Шундан сўнг Жамшид ҳужжат тўплаб кадрлар билан ишлаш бўлимига топ-

ширади. Спортнинг кураш ва қўл жанги турлари билан мунтазам шуғуллангани учун, давтавал 2008 йилда Сергели тумани ИИБ алоҳида вазифаларни бажарувчи сафарбарлик гуруҳига хизматга олишади. Бироз муддат ушбу гуруҳда фаолият олиб бориб, кейин назорат-ўтказиш пунктида хизматни давом эттиради.

Ҳозирда сафдор Жамшид Асқаров 1-сонли ИИБ Навбатчилик қисми тергов-тезкор гуруҳида ҳайдовчилик қилмоқда. Тергов-тезкор гуруҳини воқеа жойига олиб бориши, жиноятнинг тез фурсатда очилиши ва айбдорнинг зудлик билан қўлга олинишида унинг ҳам алоҳида хизмати бор. Шунинг учун ҳам у ўз ишига масъулият билан ёндашади, берилган вазифани виждонан бажаришга ҳаракат қилади.

Устоз отангдек улуғ деганларидек, Жамшид ҳам хизматга келганида соҳа сир-асрорларини ўргатган устозлари, подполковник Шўҳрат Ҳайдаров ва истеъфодаги майор Эрмат Жума-товларни ҳалигача ҳурмат қилиб, уларнинг ҳолидан хабар олиб туради.

У турмуш ўртоғи Зилола-хон билан Олимжон, Иймона ва Донохонларни вояга етказмоқда. Бежиз ўғлининг исмини марҳум отасининг номи билан атамаган. Чунки отаси элу юрт тинчлиги йўлида қахрамонларча ҳалок бўлган юрт ўғлини. Ўғлини ҳам худди отасидек Ватанига нафи тегадиган мард ва жасур қилиб вояга етказиш Жамшиднинг энг катта орзуларидан бири.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



KASBIY MADANIYAT VA INTIZOM – XALQCHIL TUZILMA ASOSI

Ichki ishlar organlari xodimlari Vatan va xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yib, xizmat burchlariga sodiq qolishlari, kasbiy madaniyat talablariga, intizom va qonunchilikka qat'iy rioya etishlari, shuningdek, yosh xodimlarda shu kabi fazilatlarini shakllantirishda xizmat jamoalarining o'rni va ta'sirini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, eng asosiysi, bugungi islohotlarning bosh maqsadi bo'lgan – inson qadrini qaror topirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Islohotlarning samarali bo'lishi tizimli va kompleks yondashuvni talab etib, natijadorligi esa kadrlarning salohiyati darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois tizimda kadrlar siyosatini yuritish masalasiga doimiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Tizimga qanchalik yangi tuzilmalar, ish uslublari kiritilib, shaxsiy tarkib zamonaviy qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlanmasin, ulardan oqilona foydalanilmasa, xodimda bilim, mahorat, ma'naviyat va vatanparvarlik hamda sadoqat yetishmasa, bunday kuch tuzilmasini ishonchli va xalqchil deb bo'lmaydi. Shuni chuqur anglagan holda, so'nggi ikki yilda ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish masalasiga tizimli yondashilmoqda.

Bu boradagi birinchi qadam 2021-yil fevral oyida davlatimiz rahbarining IIV va Toshkent shahar IIBBga qilgan amaliy tashrifi chog'ida qo'yilgan. Ushbu tarixiy tashrifda Prezidentimiz oldimizga tizimda xodimlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish vazifasini qo'yib, ushbu tizimning asosini yaratib bergan edi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi tizimda intizom va qonuniylik muhitini qisqa vaqt ichida ijobiy tomonga siljita oldi. Lekin tizimda hali muammolar, ayniqsa, xodimlarning muomala madaniyati va kasbiy salohiyati bilan bog'liq kamchiliklarning mavjudligi sohada hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar juda ko'pligini ko'rsatmoqda edi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lida olib borilgan o'rganish-

lar va tahlillar xodimlar uchun kasb madaniyati va intizom normalarining yagona majmuasi mavjud emasligini, xizmat intizomining qat'iy talablar borasida ayrim bo'shliqlarning mavjudligi ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermayotganligini ko'rsatdi.

ta'minlashga qaratilganligi bilan, balki kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Chunki qarorda xizmatga nomzodlarni qabul qilish, kadrlarni tayyorlash, ularni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta'lim sifatini ko'tarish, jangovar va jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish hamda xizmat o'tash masalalarida va albatta, sohani raqamlashtirish bo'yicha ham katta o'zgarishlarga qo'l urildi.

Ushbu rejalar va loyihalarni amalga oshirish uchun alohida kompleks chora-tadbirlardan iborat «Yo'l

ningdek, kodeks – kasbiy madaniyat qoidolari, unga amal qilish majburiyati, xodimlarning xizmatdan tashqari vaqtdagi odobi, xizmat intizomi talablari, rahbar va xodimning o'zaro munosabati, boshliqning majburiyati hamda rag'batlantirish va intizomiy choralarni qo'llash tartiblarini o'z ichiga olgan.

Albatta, kodeksni tasdiqlash va tartiblarni belgilash bilan muammo hal bo'lib qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, unga amal qilishning qat'iy talablari va shartlari ham belgilandi. Masalan, har bir xodim, u rahbar bo'ladimi yoki oddiy xodim, barchasi kodeksga so'zsiz rioya etishi, uning talablarini o'zlashtirishi va bo'ysunishi shart. Bundan buyon xodimning faoliyatini baholashda kodeks talablarini bilishi va unga amal qilishi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Kodeks talablariga bo'ysunmaslik esa xizmatdan bo'shatishgacha bo'lgan qat'iy choralarni qo'llashga asos bo'ladi. Barcha darajadagi rahbarlar kodeks talablarining bajarilishiga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha shaxsan javobgar ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Muhim yangiliklardan yana biri ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratishdir. Shu maqsadda IIV va uning hududiy bo'linmalarida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi soha olimlari, faxriylar va jurnalistlardan iborat maslahat-kengash organi, ya'ni jamoatchilik kengashlari tuzildi.

Jamoatchilik kengashlarini tuzish masalasi, birinchi navbatda, demokratik jamiyatning muhim sharti va xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu institut zamon talabi hamda islohotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib joriy etilmoqda.

Ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi endi bizdan ikki hissa mas'uliyatni talab etadi va faoliyatimiz qonuniy asoslar bilan doimiy tarzda jamoatchilik nazoratida bo'ladi. Chunki qaror bilan ushbu jamoatchilik kengashlariga bir qancha aniq vazifalar yuklanadi.

Bir so'z bilan aytganda, qaror yaqin istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim tadbirlar uchun huquqiy poydevor bo'ladi, desak, xato bo'lmaydi.

Navro'z NABIYEV,
mayor.



Shuningdek, shiddat bilan o'zgarayotgan zamon sur'ati xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasidan ilgarilab ketayotganligi, kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi ishlarni kechiktirib bo'lmazligini davrning o'zi taqozo etmoqda edi. Shuning uchun ham yuqorida qayd etilgan qarorni qabul qilish zarurati yuzaga keldi.

2023-yil 20-yanvarda qabul qilingan «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarorining muhimligi shundaki, ushbu hujjat nafaqat shaxsiy tarkib o'rtasida «temir intizomni»

xaritasi» tasdiqlandi. Shuningdek, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 6 ta ustuvor yo'nalish belgilandi. Qolaversa, Departament nizomi ham qabul qilindi. Ichki ishlar organlari tarixida ilk bor «**Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi**» qabul qilindi.

Yangi qabul qilingan kodeks xodimlarni ma'naviyatli, sadoqatli, xalqparvar etib tarbiyalash, ularda halollik, yuqori mas'uliyat hamda odob-axloq normalariga so'zsiz rioya etish hissini shakllantirish, nojo'ya harakatlar va korrupsion holatlarning oldini olishga moslashtirildi. Shu-

SOHAVIY XIZMATLARDA

TERGOV



Kapitan Sardor Sotvoldiyevning tergov sohasiga kirib kelganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Shunday bo'lsa-da o'z yo'nalishi bo'yicha yaxshi natijalarga erishyapti. Lavhamiz qahramoni Zangiota tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi lavozimida faoliyat yuritmoqda.

U Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlagach, tizimdagi xizmatni surishtiruvchi sifatida boshladi. Timsiz izlanishi, o'z ustida ishlashi natijasida tergov sohasining sir-asrorlarini puxta egalladi. Ayniqsa, ustoz murabbiylarning maslahat va yo'l-yo'riqlari chigal vaziyatlarda juda-juda asqatdi.

S. Sotvoldiyev bolaligini shunday xotirlaydi: «Ota-onam ziyoli insonlar. Shu boisdan bilim olishga ishtiyoqimni doimo qo'llab-quvvatlashgan. Maktabda barcha fanlardan a'lo baholarga o'qishga harakat qilganman. O'zbek adiblarining asarlarini sevib mutolaa qilardim».

Faoliyati davomida ko'plab jinoyatlarni fosh qilishga muvaffaq bo'lishga uning sinchkovligi, inson psixologiyasini yaxshi bilishi, yetarlicha dalillar to'plashi qo'l kelyapti.

Abror POYONOV
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

PROBATSIYA

Yurtimizda sud-huquq tizimida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida insonparvarlik tamoyillari-ga tayangan holda, jinoiy jazolar yengillashtirilib, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ko'proq ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari qo'llanilmoqda. Bu, albatta, ularga o'z xatosini to'g'ri anglab, kelgusida sog'lom turmush tarziga qaytishlariga va eng asosiysi, oilasi bag'rida bo'lishlariga imkon beradi.

Prezidentimizning 2018-yil 7-noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilinganlarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy moslashuvda probatsiya bo'limlariga har tomonlama amaliy ko'maklashish va samarali hamkorlikni tashkil etish hamda ularning shaxsiy javobgarligi yuklatilgan. Qaror asosida nazorat ostidagi shaxslarni boshqa tashkilotlar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda hayotga ijtimoiy moslashtirish, ularni axloq tarbiyalash va bandligini ta'minlashning shaffof hamda yanada samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birgina joriy yilning o'tgan oylari mobaynida ijtimoiy moslashtirish orqali

bo'lgan va axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan bir nafar shaxsga nisbatan sud jazo turini og'irrog'iga o'zgartirdi.

Qorako'l tumani IIB Probatsiya guruhi tashabbusi bilan mehnat yarmarkasi tashkil etilib, 18 nafar nazorat ostidagi shaxs foydali ishga jalb qilindi. Nazoratdagi shaxslar bilan o'tkazilayotgan suhbat ja-



belgilangan jazoni o'tashga halol munosabatda bo'lgan 72 nafar nazoratdagi shaxs o'talmay qolgan jazolaridan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etildi. Shu bilan birga, nazorat ostida

rayonlarida ularning muam-molari o'rganilib, qisqa muddat ichida hal etish choralari ko'rilmogda.

Baxtiyor OLIMOV,
kapitan.

Buxoro viloyati.

KINOLOGIYA

Sirdaryo viloyati IIB JTSB Kinologiya bo'limida «Emma» va «Gerda» laqabli itlar anchagina mashhur. Ulardagi qobiliyatni yuzaga chiqarish, is olishga o'rgatish qanchadan-qancha mashaqqatlar, mehnatlar samarasi. Viloyat IIB JTSB Kinologiya bo'limi faoliyati bilan tanisharkanmiz, bu yerda to'rt oyoqli ko'makchilarni o'rgatish uchun barcha shart-sharoit yaratilganiga yana bir bor amin bo'ldik.

Viloyat IIB PPX JTSBning kinologiya xizmatini muvofiqlashtirish bo'limida 39 ta kuchuk tarbiyalanadi. Labrador, Sharqiy Yevropa, nemis ovcharkalaridan iborat zotli kuchuklar ko'plab jinoyatlarning ochilishida katta xizmat qilgan.

Ushbu kuchuklarni o'rgatish, saqlash uchun Guliston shahrida

maxsus xizmat binosi, mashg'ulotlar bazasi yaratilgan. Bu yerda barcha shart-sharoitlar bor. Viloyat miqyosida to'rtta tumanda kinologiya bo'limi xizmat ko'rsatadi. Ular tezkor navbatchilik guruhi tarkibida kun-u tun navbatchilik qilishadi. Kuchuklar maxsus ratsion asosida oziqlantiriladi. Ularning salomatligi, ta'minoti



veterinar tomonidan nazorat qilina-di. Kinologiya FMBda veterinariya bo'limi ham mavjud bo'lib, ular zot-dor kuchuklarni yetishtirish, chatish-tirish bilan ham shug'ullanadi.

Kuchuk bolalari bolaligidanoq nazoratga olinadi. Ularning orasidan eng qobiliyatlarigina tanlab olinib, o'rgatila boshlanadi. O'rgatishlar giyohvandlik moddalari, o'qotar qurollar, o'g'rilik, qotillik izlarini topish yo'nalishlarida maxsus mashqlar asosida olib boriladi. Voyaga yetgan kuchukka tarbiyachi biriktiriladi. Ular Toshkentdagi maxsus

maktabga 4 oylik o'quv kursiga yuboriladi. Markazdagi mashg'ulotlarda kuchukdagi ko'nikmalar, malaka, iz olish qobiliyati mustahkamlanadi. Shundan keyin o'tkaziladigan sinovdan keyingina kuchuk amaliyotga jalb qilina boshlanadi. Hozirda viloyat IIB kinologlari tomonidan tarbiyalangan «Agat», «Xip», «Reks» ana shunday mashhur kuchuklar bo'lib, jinoyatlarni ochish borasida dong taratgan.

Bahromjon ERGASHEV,
katta serjant.





Безопасность на транспорте

Основную роль в поддержании стабильного порядка на территориях, прилегающих к железнодорожным путям, выполняют инспекторы профилактики.

Одним из лучших инспекторов профилактики является капитан Нодирбек Исмоилов. Выпускник Ферганского государственного университета служит в органах внутренних дел с 2013 года. Был командиром группы патрульно-постовой службы на вокзале «Наманган», рядовым сотрудником отделения ППС на вокзале «Андижан». В 2020 году Н. Исмоилову присвоено звание лейтенанта, он был назначен инспектором профилактики на станции «Савай».

Сегодня капитан Н. Исмоилов обслуживает участок железной дороги протяженностью в 24 километра, от центрального вокзала «Андижан-2» и часть железнодорожного пути в направлении станции «Пахтаабат».

– На вверенном участке расположено 15 махаллей, 6 школ, 5 производственных предприятий, – рассказывает капитан Н. Исмоилов. – В ходе обхода территории проводятся профилактиче-

ЧАСОВЫЕ МАГИСТРАЛЕЙ

Личный состав подразделений Управления обеспечения безопасности на транспорте Андижанской области работает в международном аэропорту «Андижан», в поездах, на вокзалах «Андижан» и «Ханабад», на станциях.



На снимке: инспектор профилактики Управления обеспечения безопасности на транспорте Андижанской области капитан Нодирбек Исмоилов с инспектором контрольно-пропускного пункта на вокзале «Андижан» Рахматилло Расулжоновым.

ские беседы с учащимися школ, с населением махаллей о недопущении выпаса домашних животных вблизи железной дороги, игр детей у магистралей, подростки предупреждаются об административной ответственности их родителей в случае забрасывания проходящих составов камнями.

В результате профилактических мер за последние два года не было ни единого факта правонарушения на данном участке.

В органы внутренних дел герой очерка пришел следуя примеру старшего товарища – Шаробиддина Болтабаева, служившего рядовым сотрудником отделения ППС на станции «Андижан», ныне являющегося помощником дежурного оперативной дежурной части управления.

Инспектор профилактики Нодирбек Исмоилов уже сам наставник. Его ученики рядовые Муслимбек Сайрамов и Икромжон Каримов достойно продолжают дело учителя.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



Грани мастерства

СДЕЛАЛ СВОЙ ВЫБОР

«Чтобы добиться успеха, надо уверенно идти к поставленной цели», – убежден эксперт-криминалист ЭКО УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района столицы капитан Антон Иванов.

Окончив факультет допризывной военной подготовки Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами, он стал работать преподавателем в академическом лицее при Ташкентском педиатрическом медицинском институте. Ребята с интересом посещали все его уроки. Многие из них до сих пор общаются и навещают наставника.

В органах внутренних дел А. Иванов начал службу с должности инспектора профилактики УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района.

Рассудительного, трудолюбивого сотрудника заметил эксперт-криминалист ЭКО подполковник Адхам Кабиров, который порекомендовал ему попробовать себя в экспертно-криминалистическом подразделении. Подполковник

А. Кабиров стал его наставником, учил, как работать на месте происшествия, правильно изымать и упаковывать орудие преступления, частицы ДНК, профессионально снимать отпечатки пальцев.

Часто герой нашей публикации проводит техническую экспертизу документов – определяет фальшивые ли они или нет. Многие мошенники распечатывают разные документы на обычном принтере. Например, фальшивые доверенности на машину являются распространенной аферой, которую капитан раскрывает путем проведения экспертизы.

Семья уже давно привыкла к ночным дежурствам Антона Олеговича. Супруга, Азиза Анваровна, работает учительницей начальных классов в школе. Десятилетняя дочка, Нигина, увлекается компьютерными технологиями и в дальнейшем хочет стать дизайнером.

При активном графике службы Антон Иванов находит время для занятий легкой атлетикой и теннисом. В свободное время любит смотреть исторические фильмы, читать книги известных классиков. Его девиз по жизни: «Работа, которую мы делаем охотно, исцеляет боли».

Мардона БАХТИЯРОВА.

ЗАДЕРЖАН С ПОЛИЧНЫМ

До Нового года еще целый месяц, а оборотистые дельцы уже стремятся нажиться на предпраздничной волне, торгуя запрещенными товарами.

Недавно в Оперативно-розыскное управление Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД поступило сообщение. В нем говорилось, что некий Ш. Т., проживающий в махалле Хончорбог Алмазарского района столицы, незаконно реализует пиротехнические изделия.



Было проведено оперативно-профилактическое мероприятие, в ходе которого поступившая информация подтвердилась. Гражданин Ш. Т. задержан с поличным во время сбыта 60 пиротехнических изделий «Трения» и пяти единиц «7 Shots» за миллион сумов.

В отношении подозреваемого приняты предусмотренные законом меры.

Сарвар АТАЖАНОВ,
подполковник.



TUMAN IIB FAOLIYATIDAN

XALQQA XIZMAT QILISH – OLIY BURCH

Urgut tumani Samarqand viloyatining tog'li hududlaridan biri. Bu yerdagi 120 ta mahallada 550 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi.

Tuman Ichki ishlar boshqarmasining zamonaviy binosida xodimlar, shuningdek, bu yerga turli masalalar yuzasidan keladigan fuqarolar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu, ayniqsa, hudud tinchligi va osoyishtaligiga mas'ul bo'lgan boshqarma va uning tarkibiy bo'linmalari, sohaviy xizmatlari xodimlari yanada samarali faoliyat olib borishida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, burchiga sadoqatli xodimlar huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash borasida astoydil xizmat qilib, aholining ishonchini qozonmoqdalar.



Yo'l harakati xavfsizligi bo'limi xodimi, safdor Farrux Karimov to'xtash qoidasini buzgan haydovchi bilan muloqot jarayonida.



Probatsiya bo'linmasi boshlig'i, mayor Navruz Alqorov va inspektor, mayor Sherzod Abdurahmonov doim kengashib xizmat olib boradi.



Tergov bo'limi surishtiruvchisi, leytenant Fatulloxon Amonilloev yosh, umidli xodimlardan biri.



Tuman IIB M va FRB boshlig'i vazifasini bajaruvchi, leytenant Aziz Samandarov fuqarolar bilan muloqotda.



2-kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Zafar Hasanovning buyruqlarini xizmat iti so'zsiz bajaradi.

Sahifa materiallarini Samarqand viloyati bo'yicha muxbirimiz Zamira BOLTAYEVA tayyorladi.

www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.facebook.com/postdauzwww.instagram.com/postda_uz

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ОДАМЛАРГА ЯХШИЛИКНИ ИЛИНДИМ, – дейди истеъфодаги полковник Алижон Муродов

Алижон Муродов 1949 йил 10 сентябрда Фарғона вилоятининг Охунбобоев туманидаги Болтакўл қишлоғида туғилди. Мактабни тамомлаб, Марғилон тиббиёт билим юртининг фельдшерлик бўлимига ўқишга киради. Буни қарангки, билим юртини тугатгач, 1969–1971 йилларда Белоруссиянинг Минск шаҳрида айнан фельдшерлик вазифасида муддатли ҳарбий хизматни ўтайди. Армия сафидан кўксини «Ҳарбий садоқати учун» медали бегаб қайтади.

Қаҳрамонимиз 1972–1978 йилларда Тошкент давлат университети ҳуқуқшунослик факультетининг кечки бўлимида таҳсил олади. Дорилфунунда ўқиш баробарида 1972–1975 йиллар давомида «Тошсаноатқурилиш» трестиди ишлайди.

Алижон ака ички ишлар органлари тизимидаги илк фаолиятини 1974 йили Тошкент шаҳар Чилонзор тумани ИИБда суриштирувчи вазифасида бошлади. 1977 йилда

эса фаолиятини кадрлар гуруҳининг инспектори сифатида давом эттиради. Шундан сўнг ушбу соҳа сир-асрорларини кунт билан ўрганади. Устозларининг ўғитларига доим амал қилади. Ўзининг асосий вазифасидан ортиб, тинчлик-осойишталикни таъминлаш йўлида ҳам жонкуярлик кўрсатади. Шунинг учун 1980 йилда «Жамоат тартибини сақлашдаги аъло хизматлари учун» медали билан тақдирланади.

1978 йилда Ўзбекистон Республикаси ИИБ Кадрлар бошқармаси инспектори, кейинроқ катта инспектори, бўлинма бошлиғи вазифаларида фаолият олиб борди. У жанговар ва касб маҳоратини ошириш устида тинимсиз изланди. Жиноятчиликка қарши курашиш ва жамоат тартибини сақлаш бўйича ўтказиладиган кенг миқёсли тадбирларда ҳам фаол иштирок этди.

■ **А.Муродов 1991 йилда Транспорт бошқармасининг Шахсий таркиб билан ишлаш хизматида инспектор, сўнг эса бўлим бошлиғининг касбий тайёргарлик бўйича ёрдамчиси вазифаларида хизмат қилди. 1993 йилда ушбу бошқарманинг Жамоат тартибини сақлаш бўлими бошлиғи этиб тайинланди. Шундан сўнг мазкур бўлимнинг иш кўрсаткичлари тубдан яхшиланди. Жамоат жойларида маст ҳолда турли жиноятлар содир этилиши сезиларли даражада камайишига эришилди.**

Алижон ака қайси лавозимда ишламасин, зиммасига юклатилган вазифаларни ўз вақтида, пухта бажаришга одатланган эди. У йиллар давомида кадрлар ва жамоат тартибини сақлаш бўлимларидаги фаолияти давомида бой тажриба тўплади. Ўзининг чуқур билим ва тажрибасини ёш ходимларга ўргатиб, кўплаб шогирдлар тарбиялаб етиштирди. Қаҳрамонимиз 2005 йилда полковник унвонида ҳурмат-эҳтиром билан пенсияга кузатилади.



– У самимий, бағрикенг, жуда тиришқоқ инсон. Анча йиллар бирга ишладик. Қаерда ва қайси лавозимда хизмат қилмасин, ўз вазифасини сидқидилдан бажариб, касбдошлари ва раҳбариятнинг ҳурмат-этиборини қозонди, – дейди ҳамкасбларидан бири истеъфодаги полковник Раҳматжон Аҳмедов.

– Инсон ҳаёти давомида бошқаларга фақат яхшилик қилишга интилиши керак. Хизмат фаолиятимда яхши инсонларга кўп дуч келдим. Дўстликни қадрладим. Мен одамларга фақат яхшиликни илиндим. Ўзгаларнинг ютуқларидан доимо қувондим, – дейди Алижон Муродов.

Бугунги кунда ҳам қаҳрамонимиз ўта муҳим ишлар билан банд. «Қандай ишлар?» дейсизми? У набиралар таълим-тарбияси назоратини ўз қўлига олиб, бу вазифани ҳам сидқидилдан адо этмоқда.

Мадина ҚАҲҲОРОВА,
ўз мухбиримиз.



СОҲА ФИДОЙИСИ

ҲАР ЖИҲАТДАН ЎРНАК

Куни кеча Тошкент шаҳар Юнусобод тумани ИИОФМБ ҳузуридаги Тергов бўлими терговчиси, подполковник Жаҳонгир Бойматовни пенсияга кузатиш тадбири бўлиб ўтди.

ИИБ Академиясини тугатганидан сўнг, соҳадаги фаолиятини айнан Юнусобод тумани ИИОФМБда профилактика инспекторлигидан бошлаган Ж.Бойматов 1999 йилда тергов бўлими терговчиси лавозимига ўтказилади. Орада бир неча йил Тошкент шаҳар ИИББ ҳузуридаги Тергов бошқармасида фаолият олиб бориб, кейин яна кадрдон жамоаси – Юнусобод тумани ИИОФМБ ҳузуридаги Тергов бўлимига қайтади.

Тадбирда туман ИИОФМБ раҳбарияти, пенсияга кузатилаётган ходимнинг ҳамкасблари ва шогирдлари сўзга чиқиб, Ж. Бойматов шаънига илиқ сўзларни билдиришди.

– Ички ишлар органларида узоқ йиллар хизмат қилиб, ўзининг меҳнатсеварлиги, тиришқоқлиги билан кўпчиликка намуна бўлган, юклатилган вазифаларни адо этишга виждонан ёндашадиган ходимлардан бири бўлган устозим бугун

пенсияга кузатилмоқда, – дейди қаҳрамонимизнинг шогирди, тергов бўлими терговчиси, лейтенант Азамат Тоҳиров. – У кишидан соҳа сир-асрорларини ўргандим, кўпгина масалаларда маслаҳатларини оляпман. Келгусида ҳам доим улардан билмаганларимни ўрганиб, қийин вазиятлардан чиқиш йўллари сўраб, улар каби тажрибали ходим бўлишга ҳаракат қиламан.

– Пенсияга чиқди, дегани соҳадан узоқлашиб кетди, дегани эмас, – дейди Ж. Бойматов. – Келгусида ҳам ёш ходимлар ҳамда ҳамкасбларимга билим ва

тажрибаларимни ўргатиб, соҳа ривожини учун имкон қадар ўз ҳиссамни қўшаман. Бугунги кўрсатилган юксак эҳтиромдан бошим кўкларга етди. Барчангизга мана шундай бахт насиб этишини чин дилдан тилайман.

Тадбирда Ж. Бойматовга анъанага мувофиқ миллий тўн кийдирилди ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

Ўз мухбиримиз.
Тошкент шаҳри.



Урок духовности и просвещения

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА И ДИСЦИПЛИНА — ОСНОВА НАРОДНОЙ СТРУКТУРЫ

В праздничном поздравлении в связи с профессиональным праздником главы государства отметил, что органы внутренних дел служат прочной опорой государства и общества в успешной реализации реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане на основе благородного принципа «Во имя чести и достоинства человека». В нынешней непростой обстановке в мире обеспечение общественной безопасности, укрепление мира и согласия является важной задачей. Поэтому в последние годы реформированию органов внутренних дел уделяется приоритетное внимание.



Говоря о реформах в системе МВД, Президент отметил, что на основе передового зарубежного опыта, инновационных подходов, достижений науки и цифровых технологий внедряются эффективные методы организации повседневной деятельности ОВД по надежной защите жизни, достоинства и собственности граждан. Обеспечение системы высококвалифицированными кадрами служит фактором профессиона-

лизма в работе. Инновационные методы, современные технические средства в сочетании с глубокими знаниями и патриотизмом сотрудников превращают органы внутренних дел в народную структуру, надежно стоящую на страже интересов соотечественников. Во время посещения Президентом в феврале 2021 года Министерства внутренних дел и Главного управления внутренних дел города Ташкента, были по-

ставлены конкретные задачи по организации духовно-просветительской деятельности и кадрового обеспечения с тем, чтобы вывести сферу на новый уровень. В результате последовательной реализации Концепции организационно-просветительской работы в органах внутренних дел осуществляются системные меры, направленные на усиление у сотрудников чувства патриотизма, расширение мировоззрения,

повышение уровня культуры общения.

20 января 2023 года Президент подписал Постановление «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением».

Документом в соответствии со Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, а также в целях преобразования органов внутренних дел в народную профессиональную структуру в качестве надежного защитника населения, обеспечения их работы в тесном взаимодействии с гражданами, общественными организациями в духе взаимодовверия и сотрудничества утвержден Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников.

Также были утверждены Положение о Департаменте духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения МВД, «Дорожная карта» комплексных мер по повышению уровня кадрового потенциала.

Знание и строгое соблюдение положений Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины обязательно для сотрудников ОВД, один из основных критериев оценки служебной деятельности и дисциплины.

Сотрудникам предписано быть корректными и внимательными, проявлять уважение к сослуживцам. По отношению к гражданам не должны проявлять грубость, не допускать случаев унижения их чести и достоинства. Также они обязаны противодействовать коррупции и содействовать ее профилактике.

Еще одним важным новшеством является внедрение системы общественного контроля над деятельностью органов внутренних дел. С этой целью в МВД и его территориальных подразделениях созданы общественные советы, в состав которых входят ученые, ветераны, журналисты, другие представители общественности.

Народная профессиональная структура востребована временем, показатель демократизации общества. Внедрение данной системы побуждает каждого сотрудника органов внутренних дел служить с еще большей ответственностью и самоотдачей.

Соб. корр.



KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT KAFOLATI

GO'YOKI YO'LCHI YULDUZ

Joriy yilning 30-aprelida o'tkazilgan umumxalq referendumini asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz respublikamiz taraqqiyotini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash, yurtdoshlarimizning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan huquqiy me'yor va tamoyillarni mujassam etgani bois har bir o'zbekistonlik uchun qadrlidir.

Bosh qomusimizga kiritilgan mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etilishi aholining moddiy sharoitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilishiga ishoradir. Inson va davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi hamda qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalalanishga yo'l qo'yilmasligiga oid moddalar esa sud-huquq tizimi xatosi ortidan

kimdir jabr chekishi ehtimolini kamaytiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va yerni xususiyashtirishga doir yangilanishlar bo'lsa mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ular faoliyatiga aralashuvni cheklash, sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirish hamda bozor mexanizmlarini keng joriy etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, sudyalarning vakolatlari, xalq deputatlari mahalliy kengashlari bilan bog'liq o'zgarishlar demokratik jarayonlarning jadallashuvini ta'minlaydi.



Qisqasi, Konstitutsiyamizda milliy qonunchiligimizga asos bo'lgulik hamma jihatlar mavjud. Bu huquqiy hujjat xalqimizning orzu-ni-

yatlarini to'laqlonli aks ettiradi, jinsi, e'tiqodi, millatidan qat'i nazar har bir yurtdoshimizning qonun oldidagi tengligini kafolatlaydi. Zero,

Bosh qonunimiz taraqqiyot sari eltuvchi, har bir qalbni yoritguvchi yo'lchi yulduzdir.

Ikrom ABDULAHADOV,
kapitan.

Jizzax viloyati.

«OBOD VA XAVFSIZ MAHALLA» TAMOYILI – AMALDA

OSOYISHTALIK – HAMJIHATLIK MEVASI

O'zbekiston tumani viloyat markazidan 100 chaqirim olisda joylashganiga qaramay, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta salohiyatga ega hudud sanaladi. Bugun mazkur tumanining qaysi bir mahallasiga kirib bormang, obodlik va farovonlikka, bunyodkorlik ishlariga guvoh bo'lasiz.



«Qulibek» mahalla fuqarolar yig'ini tumandagi aholisi ahil va hamjihat yashaydigan, kundan kunga chiroy ochib borayotgan fayzli mahallalardan biri. 7045 nafar aholi istiqomat qiladigan maskanda profilaktika inspektori, katta leytenant Ahadjon Xushnazarov mahalla osoyishtaligiga mas'ul. 2019-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan yosh va g'ayratli inspektor mahalla ahlining ishonchi va hurmatini qozongan.

– Ahadjon juda jonsarak posbon, – deydi mahalla raisi Javohir Turonov. – Erta-yu kech fuqarolarning xotirjamligi uchun yelib-yuguradi. Mahallamizdagi asosiy kirish yo'llari hamda gavjum joylarga o'rnatilgan kuzatuv kamerasi profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilindi. Endi xonada hujjat ishlarini bajarib o'tirganida ham mahallani bimalol kuzatib turishi imkoniyati mavjud bo'ladi.

Aholining qariyb ellik foizi chorvachilik bilan shug'ullanadi.

200 ga yaqin xonadonda issiqxona mavjud. Limondan tortib, turli ziravor, pomidor va bodringgacha yetishtiriladi. 221 nafar fuqaro tadbirkorlik, 700 nafarga yaqini savdo-sotiq, 161 nafari kasanachilik, 21 nafari hunarmandchilik bilan band. Qolgan fuqarolar esa davlat muassasalari va tashkilotlarida ishlaydi.

Aholini ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish maqsadida so'nggi ikki yilda 121 nafar fuqaroga 1 milliard 850 million so'm bank

kreditlari olishida ko'maklashildi. Yangi tadbirkorlik subyektlarining ochilishi va ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga 200 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi. 140 nafar fuqaro esa o'zini o'zi band qilish orqali ishli bo'ldi.

«Xonadonbay» o'rganishlarda aniqlangan muammolardan kelib chiqib, 10 nafar fuqaroga subsidiya asosida turli xil asbob-uskunalar olib berildi. 30 nafar shaxsga esa uzoq muddatli ijara asosida foydalanish uchun 6 gektar yer maydoni ajratildi. 11 nafar yoshlarga imtiyozli kredit mablag'lari berilishi, 12 nafar ishsiz yoshlarga «Yoshlar jamg'armasi» mablag'lari hisobidan subsidiya asosida turli xil asbob-uskunalar taqdim etilishi, 27 nafar ehtiyojmand oilalarda yashovchi yoshlarga oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahsil olish uchun kontrakt mablag'lari to'lab berilishi ham odamlarning bugungi kunidan roziligini ta'minlab, inson manfaatlarini ulug'lashga xizmat qiladi.

– Mahallamiz hozirda jinoyatchilik ko'rsatkichi bo'yicha «sariq» toifada, – deydi katta leytenant Ahadjon Xushnazarov. – Lekin yil yakuniga qadar jinoyatchilikni butunlay jilovlab, «yashil» toifaga o'tkazish harakatidamiz.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



MA'RIFAT BO'STONI

VAQT QADRIGA YETAYLIK!



Umrimizning har bir oni oltinga teng. Kechagi kun – endi tarix. Ertaga nima bo'lishi noma'lum. Bugun – imkoniyatlarga boy taqdir tuhfasi. Hamma narsa ayni damda sodir bo'ladi. Shunday ekan...

Ish uchun vaqt toping – bu muvaffaqiyat sharti.

O'y-mulohaza uchun vaqt ajrating – bu kuch-g'ayrat manbayi.

Hordiq uchun vaqt belgilang – bu yoshlik va salomatlik siri.

Mutolaa uchun vaqt toping – bu bilimlar asosi.

Do'stlik uchun vaqt ajrating – bu hayotning chinakam quvonchi.

Orzu qilish uchun ham vaqtini ayamang – bu istiqbolda yuksalish yo'li.

Mehr-muhabbat ulashishga ko'proq vaqt sarflang – bu baxt kaliti.

ODAM TO'G'RI BO'LSA...



Sovuq mavsum boshlanib, ko'chada yomg'ir avjiga chiqqan kunlarning birida Avaz juda zerikdi va ma'ruza tayyorlayotgan otasining atrofida aylanib, unga xalaqit qila boshladi. Axiyri, erkakning sabri tugadi. U eski jurnallar orasidan bi-

rini olib, ichidan dunyo xaritasi aks etgan rangli varaqni yirtib oldi. So'ng uni mayda-mayda bo'laklarga ajratib, o'g'liga qarab: «Mana shu bo'laklarni birlashtirib, yana xarita ko'rinishiga keltirsang, senga muzqaymoq olib beraman», dedi.

Bir qarashda, bu vazifa hatto katta odam uchun ham murakkablik qilar, yosh bolaning uddalashi haqida-ku, gapirmasa ham bo'lardi. Biroq oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas, o'g'lining topshiriqni bajarib bo'lganini eshitgan ota hang-mang bo'lib qoldi.

– Bo'lishi mumkin emas, qanday qilib qisqa vaqt ichida xaritani yana but holiga keltira olding? – hayron bo'lib so'radi u.

– Bu unchalik qiyin bo'lmadi, – javob qildi Avaz. – Shunchaki orqa tarafida odamning rasmi bor ekan. Men hamma bo'laklarni aylantirib, odam tasvirini yig'dim va ularni yana o'girib chiqdim. Agar odam to'g'ri bo'lsa, dunyo ham to'g'ri bo'ladi, deb o'yladim.

Ota mamnun kayfiyatda o'g'liga tabassum qildi va xayolida qayta-qayta takrorladi: «Agar odam to'g'ri bo'lsa, dunyo ham to'g'ri bo'ladi». U keyingi ma'ruzasi uchun mavzu topganidan o'zida yo'q shod edi...

BIRGINA IMKONIYAT

Ustoz o'z shogirdiga kamondan o'q otishni o'rgatayotgan edi. Yigit yoy va ikkita o'qni qo'lga olib, mashqni bajarishga hozirlandi. Shu paytda ustoz uning yoniga yaqinlashib, o'qlardan birini tortib oldi va bir chetga irg'itdi.

– Nega ikkinchi o'qimni olib qo'ydingiz? – hayron bo'lib so'radi shogird.

– Men sendan ikkinchi emas, birinchi o'qni oldim, chunki u baribir nishonga tegmasdi.

– Nima uchun?

– Chunki o'q uzayotib, zaxirada yana bir urinish borligini his etib, diqqatingni tamoman jamlay olmagan bo'larding, – deya javob qildi ustoz.



BUYUK ZAVQ

Xorun ar-Rashid o'z vaziri Ja'far, yana o'zining eng yaqin xizmatchisi bilan suhbatlashib o'tirgandi. Gapdan gap chiqib Ja'far Xorundan:

– Nimadan eng ko'p zavqlanasiz? – deb so'radi, Xorun ar-Rashid shunday javob berdi:

– Men eng nafis kiyimlar kiydim, laziz ovqatlar yedim, eng nodir sharbatlar ichdim, endi bularning hech biri meni zavqlantira olmaydi. Umrinimning shu davrida sof, toza havoda nafas olish, bir piyola ko'm-ko'k va muzdek suv ichish va bola-chaqalarimning atrofimda girdi-kapalak bo'lib yurishlarini ko'rish eng buyuk zavqimdir. Shundan keyin Xorun ham Ja'farga shunday savol berdi, Ja'far aytdi:

– Marhamat qilib bergan bog'ingizda umr kechirish men uchun eng buyuk zavqdir. Ja'far-ning javobini eshitgandan keyin Xorun ar-Rashid suhbatlashib o'tirgan eng yaqin xizmatchisiga ham xuddi shunday savol qildi. Xizmatchisi aytdi:

– Mening oladigan zavqim sizlarnikidan tamom boshqachadir. Qanday zavq deysizmi? Mana eshitib, diqqat bilan quloq soling. Yetim-yesirlarga, muhtojlarga qo'ldan kelguncha yordam berish, umuman, hammaga yaxshilik qilish men uchun eng buyuk zavqdir. Bu zavq xalq ko'ngliga naqsh etilgan, shoirilar tomonidan maqtalgan, hammaga ma'qul va maqbul bo'lgan eng buyuk zavqdir.

Xorun ar-Rashid xizmatchining so'zlarini eshitgach, o'rnidan turib Ja'farga:

– Bugungi suhbatimiz yetadi, ketaylik, bu xizmatchim haq so'zlari bilan meni ham, seni ham mag'lub etdi, – dedi.

YIQILISH FOJIA EMAS

* Agar narvon boshqa devorga suyalgan bo'lsa, qancha yuqoriga ilgarilama, baribir ko'zlangan joyga yetib bora olmasan.

* Muammolar seni ruhiy tushkunlikka va umidsizlikka tushirishi emas, olg'a harakat qilishga majburlashi lozim.

* Yolg'iz qolganda o'y-fikrlaringni, oila davrasida xulq-atvoringni, tanishlar orasida tilingni boshqarishni bil.

* Qalbdan aytilgan mehrli so'z ham bir xayrli amaldir.

* Barcha yaxshi narsalarga ega bo'lgan emas, ega bo'lganining go'zal taraf-larini ko'ra olgan baxtli.

* Hayotda yiqilish fojia emas, aslida o'sha holda qolishni tanlash muvaffaqiyatsizlikdir.

Sahifa materiallarini Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



Учебные сборы

ПОВЫСИЛИ ОПЫТ, РАСШИРИЛИ ЗНАНИЯ



В областных центрах республики проведены учебные сборы для инспекторов-психологов по вопросам несовершеннолетних отделений профилактики правонарушений районных (городских) органов внутренних дел.

Занятия проводились на основе инновационных педагогических технологий, новых форм и методов обучения. Для эффективности учебных сборов в качестве преподавателей привлечены руководители местных органов государственной власти и управления, правоохранительных структур, специалисты с богатым опытом, педагоги ведущих высших учебных заведений, а также сотрудники профильных направлений территориальных органов внутренних дел.

Сотрудникам, успешно прошедшим учебные сборы, вручены сертификаты.



На снимках: учебные сборы, проходившие в Сырдарьинской и Хорезмской областях.



КЕЧА

ВА

БУГУН



Сурхондарё вилояти ИИБ ЙҲХБ ЙПХ ходимлари фаолиятдан.



Иккинчи истеъдод

ВАТАННИ СЕВ...

Томирда Жалолиддин,
Темурнинг қони оқар,
Барча давлатлар бугун
ҳавас-ла бизга боқар,
Ютуқ, зафарлар дилга
ифтихор ўтин ёқар,
Ватанни сев, эй дўстим,
ҳимоя қил Ватанни!

Бошимиз узра мовий,
мусаффо осмонимиз,
Дастурхонда бисёрдир
насибамиз, нонимиз,
Авлодларга ўрнақдир
қудратимиз, шонимиз,
Ватанни сев, эй дўстим,
ҳимоя қил Ватанни!

Тинч юртга ярашади шодлик,
тўй ва томоша,
Қадриятлар меросдир бизга
асрлар оша,
Бунда дон еган чумчуқ
Маккадан қайтар шоша,
Ватанни сев, эй дўстим,
ҳимоя қил Ватанни!

Ҳарбий бўлмоқ осонмас,
олмоқ керак бунни тан,
Ички ишлар ходими,
дерлар сени ҳурматан,
Туну кун тоғдай таянч –
сенга суюна Ватан,
Ватанни сев, эй дўстим,
ҳимоя қил Ватанни!

Азиз МИРМАҚСУДОВ,
подполковник.

Қилмиш – қидирмиш

«СИРЛИ ТАНИШУВ»НИНГ КУТИЛМАГАН ХОТИМАСИ

Нукуслик Икром Имашов(исм-шарифлар ўзгартирилган) болалигидан ўқишга қизиқмади. Касб-хунар коллежини амал-тақал битирганидан сўнг бирон-бир ишга кириш ёки хунар ўрганишни ҳам эп кўрмади. Аксари-ят вақтини кўча-кўйда беҳуда сарфлаб юраверди. Кунларнинг бирида у ижтимоий тармоқларда «танишувни хоҳлайман» деган эълонни ўқиб қолди. Эълон эгасининг профилидан унинг ўспирин эканлигини билгач, хаёлига бир қитмирлик келди.


Тезда нотаниш akkaунт эгасига қисқа хабар йўллаб, ўзини «Сарвиноз» деб таништирди. Виртуал мулоқотлар давомида akkaунт эгасининг Алибек исмли ўн беш яшар ўсмир эканлиги маълум бўлди. «Сарвиноз» ва Алибек ўртасидаги ёзишмалар бир неча кун давом этди. Тўртинчи куни Алибек «Сарвиноз»ни учрашувга таклиф қилди. Бу танишувнинг охири нима билан тугашига қизиқаётган «Сарвиноз» унга розилик берди. Ўша куни Алибек учрашув жойига сал эртaroқ бoриб кутиб турди. Бу пайтда Икром ҳам учрашув жойига келиб, уни чеккароқдан кузатиб турарди.

Унинг аниқ Алибек эканлигига ишонч ҳосил қилиш учун унинг телефонига хабар юборди. Алибек аллақачон келиб тургани ҳақида жавоб ёзганидан сўнг, бу ерда одамлар кўп бўлганлиги боис уялаётганлигини, чеккароқ жойга чиқишини сўради. Ҳеч нарсадан хабари бўлмаган Алибек унинг сўзларига чиппа-чин ишонгани боис «Сарвиноз» айтган холироқ жойга борди.

Лекин, бу ерда уни ўзи кўришни хоҳлаган қизнинг ўрнига ёш йигитча кутиб турарди. У бирданига Алибекка ўдағайлаб, ўзини «Сарвиноз»нинг акаси эканлигини айтди. «Нега синглимга гап отиб, гапла-

шиб юрибсан», дея бетига бир-икки шапалоқ туширди. Сўнг қўриқиб кетган Алибекнинг телефонини олиб, гўё ёзишмаларни текширгандек бўлди. Лекин уяли телефонини қайтариб беришни хаёлига ҳам келтирмади. Кетар чоғи бўлиб ўтган «воқеа» ҳақида ота-онасига айтса, ўзига ёмон бўлишини айтишни ҳам унутмади.

Бўлиб ўтган воқеадан эсанкираб қолган Алибек бошида бу ҳақида ота-онасига айтишдан тийилди. Аммо телефоннинг кўринмай қолгани ошкор бўлгач, ўша кунги ҳолатни ота-онасига айтишга мажбур бўлди. Бу пайтда Икром телефонни нота-



ниш кишига арзон-гаров пуллаб, ўзига ул-бул харид қилишга ҳам улгур-ганди.

Жабрланувчилар ҳуқуқ-тартибот идораларига мурожаат қилгач, айбдорни излаш ҳаракатлари бошлаб юборилади. Тез орада «Сарвиноз» қўлга олиниб, ҳолат юзасидан жиноят иши қўзғатилди. Мазкур жиноят иши юзасидан ўтказилган суд жараёнида Икромнинг қилмишлари ўз тасдиғини топди. Суд томонидан унга нисбатан тегишли жазо тайинланди.

Ҳозирги вақтда нафақат Ўзбекистонда, балки бутун ер юзидаги энг кўп учраёт-

ган жиноят бу фирибгарликдир. Мамлакатимиз Жиноят қонунчилигида интернет фирибгарлиги билан шуғулланувчи шахсларга нисбатан 10 йилгача озодлиқдан маҳрум қилиш жазоси белгиланганлиги фирибгарликнинг нақадар жирканч иллат эканлигидан далolatдир. Шундай, экан бу каби фирибгарларнинг тузоғига учмаслик учун қонун устуворлигини тан олган ҳолда иш тутиш даркор.

Бахтибой ҚУЛИМБЕТОВ,
подполковник.
Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

MA'NAVIYAT MARSHRUTLARI

ABU ISO AT-TERMIZIY
ZIYORATGOHI

Buyuk bobokalonimiz, mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy 824-yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida, o'rtahol oilada tug'ilgan. U bolaligidan o'ta tirishqoq, idrokli va zakovatli bo'lgan. Ilmga qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. O'z bilimni oshirish borasida ko'pgina xorijiy mamlakatlarda bo'lgan.

Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Uning, ayniqsa, «Al Jomi' as-sahih», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, insonlarni halol, adolatli, iymon-e'tiqodli, diyonatli, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e'tiborli bo'lishga chorlaydi.

«Ash-shamo-il an-nabaviyya» («Payg'ambarning alohida fazilat-lari») asari payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat-lari, odatlariga oid 408 ta hadisi sharifni o'z ichiga qamragan qimmatli manbadir. Shu bois asar qadimdan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Arab tilida yozilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Shu bilan bir qatorda, ushbu asarning tili

ravon, uslubi g'oyatda oddiyligini ham qayd qilib o'tish o'rinli. Asarning fors va turk tillariga tarjima qilinishi ham unga bo'lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi.

Imom at-Termiziy 892-yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan. Imom Abu Iso at-Termiziy dafn etilgan joyda XI-XII asrlarda maqbara bunyod etiladi. Shero-bod tumanidagi mazkur majmua 1990-yili Imom at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan qaytadan ta'mirlanib, ziyoratgohga aylantirildi. Shuningdek, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan maqbarada ta'mirlash ishlari olib borildi. Sag'anasi va ganchkori panjaralari qayta o'rnatildi. Hozirgi kunda yodgorlik bir-biridan ravoqlar orqali o'tuvchi uch xona (bo'lma) dan iborat yaxlit bino ko'rinishida, xonalar tarhi 4,3x4,5 metrni tashkil

etadi. Uch xonali bo'lma murabba tarhli, ulardan janubi-sharqdagisi – go'rxona. Unda uch pog'onali marmar sag'ana bo'lib, muqarnas, naqsh va yozuvlar bilan pardozlangan. Sag'ana toshi, uning matnlari, devorlar suvog'i, panjarasimon to'siqlar va me'moriy naqshlarning boshqa unsurlari 2000–2001-yillardagi ta'mirlash ishlari natijasida amalga oshirilgan. Barcha bitiklar xivalik usta Sohobnazar Shomurodov tomonidan bajarilgan. 2001-yilda bu yerga navoiylik usta Hamdam Ahrorxo'ja yasagan marmar sag'ana o'rnatildi. Sag'ana shakli va dekoratsiyasi temuriylar va shayboniy-

lar davrlariga o'xshash sag'analarga taqlidan yasalgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2016–2017-yillarda Abu Iso at-Termiziy majmuasida ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Xususan, 450 o'rinli masjid, zamonaviy kutubxona, tahoratxona, oshxona, beshta sharqona ayvoncha va uchta sharqona darvoza qurildi. Maqbara qayta ta'mirlanib, uning yonida qo'shimcha ziyoratgoh qad rostladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



MA'RIFIY TADBIR

YANGI KITOB TAQDIMOTI

IIV Xorazm akademik litseyida Birlashgan tahririyatimiz tomonidan nashr etilgan «Jasorat va buyuklik timsoli – ayol» kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda viloyat ichki ishlar organlari xodimlari, faxriylar va litsey o'quvchilari qatnashdi.

Tadbirda viloyat IIB MMI va KBTX boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Dilnoza Bog'ibekova so'nggi yillarda mamlakatimizda kitob

mahsulotlarini chop etish va kitobxonlikni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berilayotgani, ushbu tadbir ham ezgu ishning uzviy davomi

ekanligini ta'kidladi. Shundan so'ng akademik litsey direktori o'rinbosari, podpolkovnik Behzodbek Quryozov, Qo'shko'pir tumanini IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Gulnoz G'ulomova, iste'fodagi polkovnik Gulnora Ro'zmetova, IIV Birlashgan tahririyati-



ning viloyat bo'yicha muxbiri Xudoybergan Jabborovlar so'zga chiqib, «Jasorat va buyuklik timsoli – ayol» kitobida ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarning, faxriy ayollarning yurtimiz tinchligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashdagi fidoyi xizmatlari o'z aksini topganligini alohida e'tirof etishdi.

– Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan ushbu risola biz uchun kutil-

magan ajoyib sovg'a bo'ldi, – deydi podpolkovnik Dilnoza Bog'ibekova. – Jasorat va buyuklik timsoli bo'lgan ayollarning hayoti, mashhaqqatli xizmat faoliyati, jasorati va qahramonligi hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Ushbu kitob viloyat ichki ishlar organlarida tashkil etilgan kutubxonalar va vatanparvarlik burchaklaridan munosib joy oladi.

O'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.



O'QISHNI TAVSIYA QILAMIZ

QAHRAMONLAR HAR KUNI TUG'ILMAYDI

Yurti bosqinchilardan himoya qilish sharaflı ishlar ichida eng sharaflisi. Shu bois Vatanning asl farzandlari ushbu ezgu maqsad yo'lida o'z huzur-halovati, kerak bo'lsa, barcha orzu-maqсадlaridan voz kechadilar. Hatto aziz jonini ham qurbon qilishga qodir o'g'lonlarga yurt himoyasi uchun safning old qatorida yov qarshisiga mag'rur chiqadilar.

Dunyoda turli millatlar, turli xalqlar bor. Har bir xalq o'zining ozodligi uchun kurashgan mard farzandlarini ardoqlab keladi. Ularning jasorati yillar, asrlar o'tsa-da, unutilmaydi, aksincha, qahramonlar haqidagi hikoyalar ajdodlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hayotiy maktab vazifasini o'taydi...

Tadqiqotchi-jurnalists Mavlon Shukurzodaning mamlakatimizdagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi loyihasi asosida chop etilgan «Vatan uchun jon fido qilgan qahramonlar» kitobini o'qir-kanmiz, ko'nglimizdan ana shunday fikrlar o'tdi. Kitobda Buxoro viloyatida tug'ilib, hayotining asosiy qismini O'zbekistonda o'tkazgan, keyinchalik Ozarbayjonda yashab, mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi va ona zaminni bosqinchilardan himoya qilish uchun bo'lgan janglarda ko'rsatgan jasorati, mardligi va botirligi uchun haqli ravishda «Ozarbayjon milliy qahramoni» unvoni, «Oltin yulduz» medali sohibiga aylangan, katta leytenant Aznaurov Iskandar Sahrab o'g'lining qisqa va shu bilan birga sharaflı hayot yo'li haqida hikoya qilinadi.

Kitobni mutolaa qilish davomida Iskandar Aznaurovning jang maydonidagi misli ko'rilmagan qahramonliklari, ona Vataniga, oilasiga, do'st-u birodarlariga bo'lgan cheksiz hurmati va muhabbatining guvohi bo'lasiz. Kitob ikki fasldan iborat bo'lib, birinchi faslda Iskandarning O'zbekiston zaminida o'tgan jo'shqin hayoti haqida so'z boradi. Ikkinchi faslda esa Krasnodar (Rossiya) hamda Ozarbayjonda kechgan voqealar qalamga olinadi.

Kitobni o'qirkansiz, Aniska turklarining O'zbekistonga ko'chib kelish tarixi va ular chekkan jabr-u zulmlar yuragingizni og'ritsa, xalqimizning ularni ochiq chehra bilan kutib olib, mehmondo'stlikning noyob namunasini ko'rsatganidan faxrlanib ketasiz.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonga surgun qilingan 53000 nafar Aniska turklari orasida ko'p sonli Aznaurovlar avlodi ham bor edi. Ularning shajarasiga qaralsa, kelib chiqishlari Aniska turklarining mashhur Azg'urlar qabilasiga

mansub Og'alar zotidan bo'lgan Aznaurov zodagonlari urug'iga borib taqaladi.

Iskandarning otasi Sahrab Aznaurov Turkiyada o'tkazilgan kurash bo'yicha musobaqalarda qatnashib, chempion bo'lgan. Yoshligida uni Usmon polvon deb atashardi. 1949-yilda o'rta maktabni muvaffaqiyatli bitirgan Sahrab Buxoro pedagogika bilim



yurtiga o'qishga kiradi. O'qishni bitirgandan so'ng qishloq maktabida fizika-matematika fanidan dars beradi.

S.Aznaurov 1953-yilda Kamila Mustafa qiziga uylanadi. 1954-yil 13-aprelda bu baxtli oilada to'ng'ich farzand – Sveta tug'iladi. 1956-yil 16-avgustda yana bir farzand – Iskandar dunyoga keladi. O'shanda Aznaurovlarning uyi quvonchga to'lgan edi. Sahrabning uzoq davom etgan og'ir kasalligi sabab ular Buxorodan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumaniga ko'chib kelishadi. 1959-yilda, og'ir xastalikdan so'ng 27 yoshida vafot etadi. Uning o'limidan bir oy keyin oilaning uchinchi farzandi Sevil dunyoga keladi...

Iskandarning otasi vafot etganda onasi Kamila endigina 23 yoshga kirgan edi.



Kamila qiyinchiliklarga qaramay, o'g'li Iskandar va qizlarini oliy ma'lumotli qiladi: katta qizi Sveta Toshkent tibbiyot instituti, Iskandar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Sevil esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tahsil oladi.

Iskandar onasining tavsiyasi bilan Gulxanim Hamidovaga uylanadi. Gulxanim ham o'sha paytda Toshkent davlat pedagogika institutida tahsil olardi. Ularning farzandlari Madina, Adalet va Zuina keyinchalik dunyoning nufuzli oliygohlarida tahsil olishdi. Bugun har birining ikki nafardan farzandi bor. Kenja qizi o'g'liga otasining nomini bergan. Ular milliy qahramonning nabiralari ekanligini his qilib ulg'ayishmoqda...

Kitobda tilga olingan Iskandarning talabalik yillari, harbiy xizmatdagi hayoti, keyinchalik Krasnodar ko'chib ketishi, u yerdagi mashaqqatlar, va nihoyat, Ozarbayjon hukumatiga murojaatidan so'ng ularga Shamkir rayonining Ko'r qishlog'idan boshpana ajratilishi haqidagi voqealar sizga yaqin tarixning goh shodli, goh qayg'uli kunlaridan hikoya qiladi...

1992-yilda Qorabog' urushi-ning eng qizg'in pallasida sodir bo'layotgan voqealarga befarq qaray olmagan Iskandar o'zining tinch va farovon hayotini tashlab, ixtiyoriy ravishda urushning eng qaynoq nuqtasiga jo'naydi. Vaholanki, u oilaning bosh yagona boquvchisi, yolg'iz o'g'il, balog'at

yoshiga yetmagan uch qizning otasi sifatida ham urushga bormasligi mumkin edi. O'sha paytda katta qizi Madina endigina 9 yoshga to'lgandi...

Harbiy xizmatni o'tash paytida tank to'pchisi bo'lib xizmat qilgani unga jang maydonida asqatadi. Uning ko'rsatgan jasorati va qahramonligi armanlarni qattiq xavotirga soladi. Dushman uning boshi uchun bir million dollar tikani haqidagi shov-shuvlar yetib kelgach, Iskandar Aznaurovning xavfsizligini ta'minlash maqsadida zarur ehtiyot choralari ko'riladi.

1993-yil 17-aprel kuni dushman tankidan otilgan snaryad to'g'ri Iskandarning zenit qurilmasiga kelib tushadi. Iskandar qornidan og'ir yaralanadi. Tibbiyot xodimlari dala sharoitida ichki qon ketishini to'xtata olmaydilar. Uning joni uziladi...

Tillarda doston bo'lgan afsonaviy qahramon jangchi, Bashkendni armanlardan tozalashdagi operatsiyalarda qatnashib, dushmanning ko'plab texnika va harbiy kuchlarini yo'q qilgan Iskandar Aznaurovning jang maydonida mardlarcha halok bo'lgani haqidagi xabar butun Ozarbayjonni larzaga soldi... Quroldosh do'stlari uning uchun yetarlicha qasos olishdi, hatto uning o'limi ham dushmanlarda vahima uyg'otdi.

Iskandar Aznaurovning do'stlariga sadoqati, hamqishloqlarining unga bo'lgan muhabbati va hurmati, mehribon ota, g'amxo'r umr yo'ldosh bo'lgani haqida quroldosh do'stlari, oila a'zolari hamda yaqinlarining xotiralarini ko'zda yosh bilan o'qiysiz.

O'zbekiston zaminida tug'ilgan Iskandar Aznaurov Ozarbayjonni ham ona Vatanim deb bildi. Uning ozodligi yo'lida jon fido qilib, milliy qahramonga aylandi. Har yili xotirlash tadbirlariga nufuzli hukumat vakillari, keng jamoatchilik to'planib, milliy qahramonni yodga olishadi. Bugun Ozarbayjonda Iskandar nomi bilan ataluvchi ko'cha, aholi punkti, ta'lim maskani va harbiy qismlarga ko'zingiz tushadi. Uning qahramonligi haqida ko'plab asarlar yozilgan, filmlar ishlangan.

U xalqning mana shunday yuksak ehtiromiga munosib jasorat sohibi edi. Zotan, qahramonlar har kuni tug'ilmaydi...

Sherzod ABDUSAMADOV, o'z muxbirimiz.





IMMUNTANQISLIK NIMA?

Epidemiologik kasallik bo'lgan orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) axloqsizlik va giyohvandlikning indikatori sifatida ham qaraladi. Afsuski, haligacha bu kasallikning davosi topilmagani bois u insoniyatga o'z hukmini o'tkazyapti.

Yuqish ehtimoli kam, ammo...

OITS inson organizmiga virus tushishi orqali kechadi. Virus uch xil yo'l bilan yuqadi. Birinchisi, jinsiy, ikkinchisi, parenteral yo'l bo'lib, bunda tibbiy yoki maishiy asboblari (shprits ignasi, qaychi, lezviya, skalpel, stomatolog va akusher-ginekolog asboblari, pedikyur-manikyur asboblari, ya'ni, o'tkir, kesuvchi, sanchiluvchi, yirtuvchi asboblari) OIVga chalingan bemorga qo'llanilib, sterilizatsiya qilinmasdan, sog'lom odamga qayta qo'llanilsa, shuningdek, OIVga tekshirilmagan donor qonlari orqali bir odamdan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Uchinchisi, vertikal, ya'ni, OIV infeksiyasiga chalingan homilador yoki emizikli

ayoldan homila yoki chaqaloqqa, ona qornida, tug'ish jarayonida yoki ko'krak suti bilan emizilganda yuqadi.

OIV infeksiyasining uy sharoitida yuqish ehtimoli deyarli yo'q. Chunki kasallik qo'l berib ko'rishganda, oshxona buyumlari (qoshiq, sanchqi, choynak, piyola va boshqalar)dan, hojatxona orqali, vannada cho'milganda, sochiqdan foydalanganda shuningdek, qon so'ruvchi hasharotlar chaqishidan yuqmaydi. Uy sharoitida ustara (lezviya), tish cho'tkasi (tishlar qonashi inobatga olinadi) kabi asboblardan birga foydalanilsa, yuqish ehtimoli mavjud.

OIV organizmga tushgach, uzoq vaqt kasallik qo'zg'amasdan, yashirin holda bo'lishi mumkin. Virus



faollashgach, kasallikning so'nggi bosqichi sifatida OITS boshlanadi.

Immun tizimini yemiradi

OITS – alohida kasallik emas. U organizmda turli yalilg'lanish, toshmalar, o'smalar, asab kasalliklarining avj olishi bilan kechadigan kasallikdir. Organizmning turli kasalliklarga qarshi kurashish tizimi immunitet deyiladi. Bu tizim inson tanasiga

tushgan turli bakteriyalar, viruslar, mikroorganizmlarni zararsizlantiradi, ularni siqib chiqaradi. Tanaga OIV tushgach esa asta-sekinlik bilan ushbu tizim ishdan chiqadi. Hujayralardagi SD4+ limfositlar parchalanadi. Natijada OITSGa chalingan bemorda turli infeksiyon, teri, o'sma kasalliklari avj oladi. Kasallikka chalingan shaxs ozib ketadi. U tez terlaydigan bo'lib qoladi. OITSGa chalingan bemorlar orasida

pnevmoniya, tuberkulyoz kabi nafas yo'llari kasalliklari ko'p uchraydi. Shuningdek, sarkoma, herpes, saraton kasalliklariga duch kelish ehtimoli ko'payadi.

Maxsus dori vositalari odam organizmidagi viruslar sonini kamaytiradi, ko'payishiga to'sqinlik qiladi, immunitetni oshiradi, ikkilamchi infeksiyalar rivojlantirishining oldini oladi, yashash sifatini yaxshilaydi, bemor umrini uzaytiradi. Eng asosiysi, epidemiologik jihatdan jamiyat uchun xavfsizligi ta'minlanadi.

Doimiy dispanser nazoratida turib, maxsus dori vositalarini muntazam qabul qiladigan bemorlar yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat uchun xavfsiz hisoblanadi, chunki ularning qonida viruslar yuqtirish darajasidan (1 ml qonda 500 dan) kam bo'ladi.

Ulug'bek NODIROV,
Sirdaryo viloyati IIB
Tibbiyot bo'limi SENM
shifokori.

КАК ВОССТАНОВИТЬ СЕВШИЙ ГОЛОС

В сезон простуд частая проблема – севший голос. Ларингит – воспаление слизистых оболочек гортани и голосовых связок, из-за чего голос и становится хриплым, а то и вовсе исчезает. Вызвать его могут и вирусные, и бактериальные инфекции – поэтому лечение должен назначить врач-оториноларинголог. Но есть правила, соблюдая которые можно быстрее избавиться от хрипоты.

1. Дышите влажным воздухом

В отопительный сезон воздух в помещении очень сухой – и это плохо сказывается на состоянии слизистых носа и горла. Поможет ежедневная влажная уборка и мокрое полотенце на батарее.

2. Не говорите даже шепотом

Напрягать воспаленные голосовые связки – просто опасно, многие это инстинктивно чувствуют



и стараются говорить шепотом. И делают ошибку, потому что при шепоте голосовые связки напрягаются. Самый простой и верный способ побыстрее вернуть голос – просто помолчать.

3. Не используйте сосудосуживающие капли

Во время простуды страдает не только горло – очень часто заложен нос, и приходится применять сосудосуживающие капли. Но надо учесть: они сушат носоглотку и затягивают выздоровление. К тому же ежедневное использование таких капель вызывает зависимость, поэтому если можно обойтись без них – лучше это сделать.

4. Полощите солевым раствором

Половина чайной ложки соли на стакан воды – такой раствор отлично увлажняет горло. Полоскание горла этим раствором обеспечит приток крови и поможет побороть инфекцию.

5. Ингаляция

Этот метод борется с простудой и отлично помогает. Вы можете вдыхать пар над миской с горячей водой. Пар увлажнит горло и ускорит выздоровление.



Но выполняйте процедуру с осторожностью.

6. Прогревайте горло

Теплые чаи, отвары, настои с пряностями и имбирем – пейте маленькими глотками не спеша, растягивая удовольствие как можно дольше. Так мы и прогреваем горло, и запасаемся

витаминами. Повторяем процедуру как можно чаще. Но надо учесть: чай должен быть именно теплым, не горячим.



Перед применением проконсультируйтесь с врачом.



Джизакская область

САДЫ РЯДОВОГО АХУНОВА



Среди сотрудников правоохранительных органов есть люди, увлеченные тем или иным делом, ставшим своего рода хобби. В их числе сотрудник дежурной части первого отделения ОВД Зааминского района Джизакской области рядовой Дилмурод Ахунов.

Любовь к земле, ко всему плодоносному Дилмуроду еще в детстве привил отец, Шухрат-бобо. Он часами мог ухаживать за саженцами, экспериментировать в скрещивании разных сортов и видов фруктовых деревьев. До поступления на службу в органы внутренних дел Дилмурод являлся опорой для отца в земледелии. Теперь в свободное время спешит к брату, Дамшиду Ахунову, который руководит фермерским хозяйством «Мирзо Улугбек Мироншо».

На двух гектарах хозяйства выращивается миндаль, на трех растет слива, столько же отведено под айву, по одному гектару занимают инжир и персик.

По краям полей высажено 500 тополей и 250 саженцев арчи. Запланировано разбить виноградник еще на одном гектаре.

Понятно, что рядовой не долго задерживается – служба есть служба. Но он щедро делится советами и рекомендациями с садоводами. Кстати, саженцы, выбранные Дилмуродом для фермерского

хозяйства, дружно пошли в рост, а первенцы уже плодоносят.

Опыт Д. Ахунова пришелся кстати и во время участия сотрудников РОВД в общенациональном проекте «Яшил макон». Личный состав внес вклад в создание парка на четырех гектарах в махалле Мустакилик. Совместно с сотрудниками Национальной гвардии здесь высажено 3 600 тополей и хвойных пород деревьев. Д. Ахунову доверили организацию необходимых агротехнических мероприятий: пахоту, нивелирование земельной площади, прокладку оросительных систем, расчет схемы раз-



мещения саженцев и др. Он также внес большой вклад в создание сада, где личный состав первого отделения высадил 250 плодовых и декоративных деревьев.

Соб. корр.



MUNAJJIMLAR BASHORATI (4-10-dekabr)



Qo'y. Bu hafta davomida kuzatilishi ehtimoli yuqori bo'lgan ko'ngilsizliklar sizda kimnidir tanqid qilish yoki noo'rin so'z bilan ko'nglini og'ritish istagini uyg'otishi mumkin. O'zingizni qo'lga olib, aql bilan ish yuriting. Ruhiiy muvozanatni saqlashga harakat qiling, bu sizga atrofingiz bilan to'g'ri muomala qilishga yordam beradi.



Buzoq. So'nggi davrda o'zingizga juda kam vaqt ajratyapsiz. Salomatlik va tashqi ko'rinishga jiddiy e'tibor qaratib, shunda ko'tarinki kayfiyatga ham ega bo'lasiz. Bu haftada yirik pul aylanmalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, ayni damda mablag' sarflash emas, pul yig'ish lozim bo'ladi.



Egizaklar. Baxt xotirjamlikni yaxshi ko'radi, shu sababdan atrofingizga o'z yutuqlaringizni oshkor qilavermang. Janjallashgan yoki arazlashgan insonlar bilan yarashish uchun o'zingizda kuch toping. Kelib tushishi kutilayotgan daromad o'zgaruvchan kayfiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dam olish kunlarini sokin muhitda va toza havoda o'tkazishga harakat qiling.



Qisqichbaqa. Yechimini ortga surib yurgan muammolarni hal etish uchun qulay davr. Ularni osonlikcha amalga oshirish uchun yaqinlaringizdan yordam so'rang. Kutilayotgan haftada moliyaviy tushumlar kuzatiladi, shuning uchun ko'pdan beri orzu qilgan narsalarni bemaolol xarid qilishingiz mumkin.



Arslon. Dastlabki kunlar kasb-hunar sohasida muvaffaqiyatlar va moliyaviy daromadlar kutilmoqda. Foydali odamlar bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi mumkin bo'lgan xizmat safarlari, shaxsiy ish bilan uzoq o'ikalarga sayohatlar omadli kechadi. Haftaning so'nggi onlari ruhiy barqarorlikka erishishda yordam beradi.



Parizod. Dastlabki ikki kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofingiz bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo keyingi kunlar kayfiyatingiz ko'tarilib, qo'l urgan ishlaringiz oson va yengil hal bo'la boshlaydi. Dam olish kunlarini oilangiz davrasida o'tkazing.



Tarozi. Kutilmagan daromad hayotdagi ehtimoliy o'zgarishlarni yengil boshdan kechirishga yordam beradi. Ulardan aslo cho'chimang: kerakli burchak ostidan qaralganda bu o'zgarishlar ayni muddao bo'lganini tushunib yetasiz. Bo'sh vaqtlaringizni do'stlarga bag'ishlang.



Chayon. Ayni davr o'zingizga vaqt ajratish uchun qulay vaqtdir. Ishda rag'batlantirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun har bir ish-harakatni yaxshilab o'ylab ko'rib, so'ngra amalga oshiring.



O'qotar. Bu hafta sog'liqqa jiddiy e'tibor qaratib, turli texnika va mexanizmlarni boshqarishda o'ta ehtiyotkor bo'lish lozim. Hozircha ishdagi katta yutuqlarga umid qilmang. Juma kuni tashvishlanish va xavotir hissi yuzaga kelishi mumkin. Lekin dam olish kunlari yaxshi kayfiyat va moliyaviy tushumlar va'da qilmoqda.



Tog' echkisi. Hafta boshida taqdiringizni o'zgartirishga qodir yangi tanishuv yuz berishi ehtimoli yuksak. Keyingi kunlar «ish-uy» tartibida o'tadi. Juma kuni kayfiyatingiz tushib, o'zingizni yomon his qilishingiz mumkin. Dam olish kunlari hech qayerga chiqmay, oila a'zolari bilan xotirjamlikda vaqt o'tkazish tavsiya etiladi.



Qovg'a. Hafta yakunigacha to'planib qolgan barcha ishlarni hal etishga harakat qiling. Vaqt o'tishi bilan ularni bajarish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'zingiz uchun vaqt ajrating, masalan, oqshomlari sayrga chiqing, dam olish kunlari maroqli hordiq chiqaring.



Baliq. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va faoliyatda yordam beruvchi foydali aloqalarni o'rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir.

IIV Malaka oshirish instituti jamoasi Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, podpolkovnik Abdumalik Kuldashyeva volidayi muhtaramasi

Norguloy ayaning
vafot etganligi munosabati bilan chuqur hammadlik izhor etadi.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

Sportni sev, sport bilan yasha!

IIV JAMOASI – G'OLIB

Ichki ishlar vazirligi «Dinamo» JTSJ tashabbusi bilan mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari o'rtasida joriy yil uchun tasdiqlangan taqvim rejasi asosida XXXII Spartakiada dasturiga kiritilgan sportning sambo turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Musobaqada Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Prezident davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish hamda transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni

ta'minlash departamentlari, huquq-tartibot organlari oliy ta'lim muassasalarining 12 ta jamoasiga birlashgan 120 nafar sportchi xodim qatnashdi. Ishtirokchilar 7 ta vazn toifasida o'zaro kurash olib bordi.



Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni Ichki ishlar vazirligi jamoasi egalladi. Keyingi o'rinlar esa Prezident davlat xavfsizlik xizmati va Davlat xavfsizlik xizmati vakillariga nasib etdi.

IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida g'olib

va sovrindor jamoalarga kubok va faxriy yorliqlar, shuningdek, har bir vazn toifasida g'olib bo'lgan ishtirokchilarga medal, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Malika SOBIROVA,
serjant.

VAZIR KUBOGI FARG'ONALIK YOSHLARDA

Joriy yilning sentabr-noyabr oylarida O'zbekiston voleybol federatsiyasi bilan hamkorlikda respublika hududlarida 16-26 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida voleybol bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqalari bo'lib o'tdi.

Bellashuv natijalariga ko'ra, birinchi o'rin Farg'ona viloyati jamoasiga nasib etdi.



Musobaqaning taqdirlash marosimida Ichki ishlar vazirining o'rinbosari, general-mayor B. Abdullayev qatnashib, sportchilarning kelgusi faoliyatlarida yutuq va muvaffaqiyatlar tiladi. Va bu kabi musobaqalar yoshlarimizning mahoratini oshirib, kelgusida Vatanimiz bayrog'ini yanada yuksaklarga ko'tarishida ahamiyatli ekanligini ta'kidladi.

G'olib jamoaga «Ichki ishlar vaziri kubogi» hamda 25 million so'm pul mukofoti tantanali ravishda topshirildi.

Postda
Ha noqiy

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sherzod ABDUSAMADOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-3589.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50466 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz